

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

MO‘MINOVA BAHORA AKRAMOVNA

**ADABIYOT DARSLARIDA CHINGIZ AYTMATOVNING
HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar
f.f.n.R.Ro‘zmonova**

SAMARQAND – 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI O‘QITISH
METODIKASI KAFEDRASI**

MO‘MINOVA BAHORA AKRAMOVNA

**ADABIYOT DARSLARIDA CHINGIZ AYTMATOVNING
HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar:
Rasmiy taqrizchi:**

**f.f.n.R.Ro‘zmonova
dots.Sh.Ishniyazova**

Malakaviy bitiruv ishi amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining 2015- yil 30- maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (10-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

dots. Muhiddinova B.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2015- yil ____ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (____ -son bayonnoma)

**YaDAK raisi:
A‘zolari:**

prof. Turniyozov N.

SAMARQAND – 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish
metodikasi kafedrası**

MO‘MINOVA BAHORA AKRAMOVNA

**ADABIYOT DARSLARIDA CHINGIZ
AYTMATOVNING HAYOTI VA IJODINI
O‘RGANISH**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar

f.f.n.R.Ro‘zmonova

SAMARQAND – 2015

MUNDARIJA:

I. Kirish	5-8
Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	5-8
II. Asosiy qism:	
1-bob: Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi	9-22
1.1. Chingiz Aytmatov ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	9-14
1.2. Chingiz Aytmatov asarlarida rivoyatlar va folklor an’alarining qo‘llanilishi.....	15-22
2-bob: Chingiz Aytmatov ijodining maktab darsliklarida o‘rganilishi . .	23-60
2.1. “Oq kema” asarining o‘rganilishi	23-35
2.2. “Asrga tatigulik kun” asarini maktab darsliklarida o‘rganish . . .	36-60
III. Xulosa	61-62
IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	63-64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, istiqlol yillarida xalqimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarida tub burilishlar jarayoni boshlandi. Bu davrda milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanib, barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqillik mafkurasini yoshlar shuuriga singdirish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu o'z navbatida ilm-fanning boshqa sohaları qatori adabiyotshunosligimiz oldiga ham ulkan va mas'uliyatli vazifalar qo'ydi. Hayotimizning barcha sohaları kabi milliy adabiyotimiz tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirdi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ham adabiyot va ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani barchamizga ayon. "Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"¹ - deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov. Darhaqiqat, adabiyotimizning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad ham so'z sehri ila insonlarni ezgulikka chorlashdir. Ayniqsa, badiiy adabiyotda xalqning ijtimoiy hayoti, ma'naviy-ahloqiy turmushini tasvirlashda, hozirgi kunda yosh avlodni ruhan sog'lom, ajdodlar merosini qadrlaydigan qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'рни nihoyatda ahamiyatlidir. Mamlakatimiz hududida asrlar davomida yaratilgan badiiy adabiyot durdonalari har bir avlod ijodkorlari tomonidan yangilanib, boyitilib, badiiy jihatdan yanada takomillashtirilib kelingan. Hozirgi davrda adiblarimiz ijodini o'rganish adabiyotshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'ziga xos poetik uslubga ega bo'lgan adib Chingiz Aytmatov ijodi butun dunyo ahlini o'zining haroratli so'zi ila hayratga soldi. Yozuvchi ijodining originalligi, xalq og'zaki ijodining badiiy unsurlaridan unumli foydalanib, insonlarni ezgulikka, bashariyatni esa ogohlikka da'vat etishi bilan xarakterlanadi.

¹ Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009, 12- bet.

Prezidentimiz I.Karimov ta’biri bilan aytganda: “Chingiz Aytmatov voqelikni badiiy obrazlarda yorqin aks ettirib, his-tuyg‘ularimiz va kechinmalarimizga teran ta’sir o‘tkazib, o‘z asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan adibdir. U o‘zining butun hayoti va ijodi bilan xalqlar do‘stligi va hamjihatligi, madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishi hamda ma’naviy qadriyatlarning rivojlanishi uchun kurashib keldi. Chingiz Aytmatov o‘zbek xalqiga hamisha do‘st-u qadrdon edi va shunday bo‘lib qoladi. U o‘z vatanida sadoqat hamda fidoyilik bilan xizmat qilish timsoli sifatida xotiramizda mangu yashaydi”².

Yozuvchi Chingiz Aytmatov xalq og‘zaki ijodi janrlaridan ma’lum bir turlarini asar kompozitsiyasida keltirib o‘tgani bilan o‘tmish va bugungi kunning dolzarb mavzularini qalamga oladi. Yozuvchi qo‘llagan xalqona uslubni yuzaga keltirgan asosiy sabablar, asardagi rivoyatlarda ifodalangan xalqchilik va milliylik, rivoyatlarda didaktik mazmunning yetakchilik qilishi va boshqa shu kabi masalalar mazkur ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Muayyan yozuvchi ijodini o‘rganish masalalari tadqiqotchi va olimlar tomonidan yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligida ham bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida aytmatovshunoslik o‘z o‘rni va o‘z ovozigaga. Chingiz Aytmatov ijodi va asarlari tahlili, ularning badiiy qimmatini, yozuvchining qardosh xalqlar bilan adabiy munosabatlari masalasini G‘aybullar Salomov, Asil Rashidov, Ilhom G‘aniyev va Rustam Ibragimov singari olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida batafsil yoritib berganlar. Yirik asarlarni dunyo ahliga taqdim etgan yozuvchining o‘ziga xos mahorati va milliy epos an’analari bilan uyg‘unlashgan asarlari tadqiqi olima Pariza Mirzaahmedova tomonidan tahlil qilingan³. Shuningdek, yozuvchi asarlari tarjimoni olim Asil Rashidov o‘z monografiyasida yozuvchining badiiy asarlari tahlili bilan bir qatorda uning xalq

² www.newsuz.com

³ Мирзаахмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Ч.Айтматова. Дисс.канд.фил.наук. – Москва, 1981.

ogʻzaki ijodiga boʻlgan alohida mehr-muhabbati haqida ham fikr bildiradi. Shuningdek, ishda yozuvchi haqida bitilgan bir qancha ilmiy maqolalardan ham keng foydalanildi. Jumladan, S.Qorayev, D.Aliyeva, O.Fayzullayev, S.Meliyev, P.Mirzaahmedova, N.Sizdiqboyev, N.Jbanova maqolalarida yozuvchi poetik olamining qirralari, uslubi va mahorati haqida toʻxtalib oʻtilgan. Mazkur ishlar adib hayoti va ijodini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Ularda adib asarlari poetikasiga doir qimmatli ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Chingiz Aytmatovning maktab darsliklarida berilgan “Oq kema” qissasi va “Asrga tatigulik kun” romani ishimizning asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu asarlar kompozitsiyasidagi rivoyatlar hamda ulardagi badiiy yaxlitlik ishimizning predmetini tashkil etadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Chingiz Aytmatov asarlarining didaktik ahamiyati va oʻziga xos uslubni qoʻllashda asosiy manba boʻlgan adabiyotlarni tadqiq etish, yozuvchi ijodining maktab darsliklarida berilishini tekshirish ishimizning asosiy maqsadini belgilab beradi.

Ana shu maqsaddan kelib chiqib, ushbu ishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Chingiz Aytmatov asarlarini mavzu koʻlami va janr xususiyatiga koʻra tasniflash;
- Chingiz Aytmatov asarlarida qoʻllanilgan rivoyatlar zahirida xalqchilik va milliylikning ifodalanishini misollar yordamida aniqlab berish;
- maktab darsliklarida adib haoyoti va ijodini oʻrganish masalalarini yoritish;
- asarlarning estetik va badiiy qimmatini, jahon adabiyotida tutgan oʻrni va roli masalasini yoritish.

Ishning metodologik asosi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning maʼnaviy qadriyatlar, milliy anʼanalar va tarixiy xotiraning mohiyati, milliy madaniyatni takomillashtirish, maʼnaviy komillikka erishish, maʼnaviyatni rivojlantirish va yuksaltirish borasidagi nazariy mulohazalari ishning metodolik

asosini tashkil etadi. Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodining o'rganilishi, badiiy mahorati xususida Asil Rashidov, Pariza Mirzaahmedovalarning tadqiqotlariga, shuningdek, G'.Salomov, S.Qorayev, Q.Yo'ldoshev, D.Aliyeva, O.Fayzullayev, S.Meliyev, N.Sizdiqboyevlarning yozuvchi mahorati haqidagi mulohazalariga ham tayanildi.

Ishning yangiligi. Chingiz Aytmatov ijodining maktab darsliklarida o'rganilishi, o'ziga xos uslubi, mahorati va obrazlar silsilasining yoritilishi ushbu ishimizning yangiligini belgilaydi. Ishda, shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi, adib qo'llagan xalqona uslubning o'ziga xos jihatlari, asarlarining maktab darsliklarida o'rganilishi masalalari o'rganishga harakat qilindi. Poetik obrazlarning asar sujetida tutgan o'rni va ular ostiga yashiringan ramziy timsollar tadqiqi ishning yangiligini namoyon etadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Hozirgi kunda yosh avlodni ruhan sog'lom, ajdodlar merosini qadrlaydigan qilib tarbiyalashda adiblar ijodining o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, adib asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan bo'lib, unda milliy ruh va xalqona uslub yetakchilik qiladi. Ana shu an'anadan unumli foydalangan adib asarlari tadqiqi o'zining serqirraligi, kitobxonni zeriktirib qo'ymasligi, didaktik mazmun kasb etishi bilan amaliy ahamiyatga egadir.

Ishdan akademik litsey va maktablarda adib hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1- BOB. CHINGIZ AYTMATOV HAYOTI VA IJODI

1.1. Chingiz Aytmatov ijodining o'ziga xos xususiyatlari

Chingiz Aytmatov qirg'iz xalqining ulug' yozuvchisidir. Uning nomi XX asrda xalqaro miqyosda tan olingan jahon adabiyotining buyuk vakillari bilan bir safda turadi. Ayni vaqtda ko'pdan ko'p taniqli adabiyotshunos olimlar uni L.N.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, Folkner kabi adiblar qatoriga qo'yadilar. Shu ma'noda u hayotlik chog'idayoq mumtoz (klassik) adib degan yozuvchi uchun nihoyatda sharaflı e'tirofga munosib bo'lgan so'z ustasidir. Uning asarlari jahonning yetmishdan ortiq tiliga tarjima qilingan. U qirg'iz va rus tilida birdek ijod qiluvchi yozuvchidir. Qirg'iz va rus madaniyati, yozma adabiyotining taraqqiyoti darajasidagi, milliy fikrlashdagi, tilidagi o'ziga xosliklar, farqlar juda katta ekani barchaga ayon. Yozuvchi asarlarida shu kunning dolzarb hodisalari xalq og'zaki ijodi orqali yetib kelgan afsonalar, rivoyatlar bilan singishib ajib bir yaxlitlik tashkil etadi.

Ch.Aytmatov o'zbek xalqi va o'zbek adabiyotining katta do'stidir. "Vizantiya madaniyati jahon madaniyati ravnaqiga nechog'li ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, o'zbek madaniyati Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojiga shu darajada ta'sir ko'rsatgandir", - deydi Chingiz Aytmatov. Yozuvchining deyarli barcha yirik asarlari o'zbek tiliga o'girilgan. Uning qissa, romanlarini o'zbek kitobxoniga yetkazishda Asil Rashidov, Ibrogim G'afurov kabi mohir tarjimonlarning xizmatlari beqiyos. Xalqlar o'rtasida tinchlikni, adabiyotlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash ishida Chingiz Aytmatov davlat va jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirgan.

Chingiz Aytmatov 1928-yil 12-dekabrda Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug'ilgan. Bobosi Aytmat og'a ajoyib qo'bizchi edi. U temir yo'lda ishlashi bilan o'g'li To'raqulni Avliyo otadagi rus-tuzem maktabiga joylashtiradi. Keyinchalik, To'raqul Aytmatov Qirg'izistonning katta davlat arbobi darajasiga ko'tariladi. Chingizning onasi Naima Aytmatova o'qimishli, oqila ayol edi.

Bo'lajak adibga bolalik yillarida buvisi Oyimxon aya va uning qizi Qoraqiz opa ko'pdan ko'p rivoyat, afsona, qo'shiqlar aytib berishardi. Yozuvchi asarlariga bolalikdan eshitgan shu rivoyatlarning muayyan ta'siri bo'lsa, ajab emas. Chingiz avval rus maktabida o'qidi, so'ng qirg'iz maktabida o'qishni davom ettirdi. U 1956-1958- yillarda Moskvada Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi oliy adabiyotchilar kursida tahsil oldi. U turli yillar davomida Qirg'izistondagi yetakchi adabiy jurnal «Literaturnaya Kirgizistan»ning bosh muharriri, «Pravda» ro'znomasining jumhuriyatlardagi muxbiri, Qirg'iziston kinematografchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishladi. U jumhuriyat kinosi rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Qirg'iz kino san'ati ham xuddi badiiy adabiyoti kabi Chingiz Aytmatov asarlarining ekranlashtirilishi misolida jahon miqyosiga chiqdi.

Adib nomini ilk bor xalqaro miqyosda mashhur qilgan asar «Jamila» qissasi bo'ldi. 1958- yilda yozilgan bu qissa 1959- yili rus va fransuz tillariga kitob holda e'lon qilingan, ikki yil ichida sobiq Ittifoq va xoriydagi o'ttizga yaqin tilga o'girildi. Sho'ro adabiyotida bunday hodisa bo'lgan emas. Asarni fransuz tiliga o'giran Lui Aragon uni «Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa» deb baholadi va hatto maqolaning nomini ham shunday deb atadi. Qissada Jamila va Doniyorning beg'ubor, pokiza muhabbatlari asosida inson erki va huquqi, asriy odatlarga faol munosabat ko'rsatiladi.

Novatorlik Chingiz Aytmatov ijodining bosh xususiyatidir. «Somon yo'li» qissasi buning yorqin dalilidir. Asarning bosh qahramoni To'lg'anoy hayotning juda og'ir mashaqqatlarini boshidan o'tkazgan. Dahshatli urush eridan, uch o'g'lidan judo qilgan. Biroq, bu yetmagandek, taqdir uning boshiga yana bir kulfat soladi. Farzandi o'rniga farzandday bo'lib qolgan kelini Aliman hayotdan bevaqt ko'z yumadi. Biroq, yozuvchi tasavvuricha, qismat batamom beshafqat bo'lishi mumkin emas. Chunki hayot shunday. Kelinidan To'lg'anoyga yodgor bo'lib nabira qoladi. Nabira uning hayotida hayotning davomi edi. To'lg'anoy avlodlari kasbikorining abadiyati mujassamidir.

Yozuvchi mahorati tabiat va jamiyat, o'tmish va bugun, asotir va yangilik, fantaziya va reallik, afsona va haqiqat uzviyligining badiiy tasvirida namoyon bo'ladi. «Oq kema» qissasi adibning ana shu yo'nalishdagi poklik va adolat, xunrezlik va uning axloqiy ildizlari, milliy an'analar va insoniy qadriyatlar talqiniga bag'ishlangan navbatdagi eng go'zal asarlaridan biridir. Asarda o'quvchi nurday toza orzular og'ushida yashovchi, Ona bug'u hamda Oq kema haqidagi ertaklarning ertak emas, chin ekaniga astoydil ishongan va ularning ro'yobga chiqishiga ko'z tutgan Bola; nihoyatda halol, samimiy va haqgo'y bo'lishiga qaramay qizi, nabirasi tinchligi va osoyishtaligi deb o'zlariga qaram va mute' bo'lib qolgan, shu bois, hatto Ona bug'uni o'ldirishgacha borib yetgan Mo'min bobo; odam qadri-yu tabiat, milliy qadriyat-u, urf-odat barchasiga bir pul deb qaraydigan vahshiysifat O'rozqul singari obrazlarga duch keladi.

Ona bug'uning o'ldirilishi natijasida barcha orzu-umidlari chilparchin bo'lgan Bolaning baliqqa aylanib, Oq kemaga yetish maqsadida suvga tushib nobud bo'lishi ramziga yozuvchi toza umid va insoniy poklikni, ma'naviy tubanlikka qarshi isyonni, barkamollikni ulug'lovchi katta estetik ma'noni singdirgan. «Asrga tatigulik kun» romani Chingiz Aytmatovning jahon miqyosidagi shuhratiga yangi shuhrat qo'shdi. «Asrga tatigulik kun» romanida aks ettirilgan voqealar, asosan, Bo'ronli deb nom olgan temir yo'l bekatidagi mittigina olti-yetti oila yashaydigan ovulchada ro'y beradi. Ovulcha esa Qozog'istonning hayhotdek Sario'zak cho'lida joylashgan. Roman kompozitsiyasi nihoyatda mahorat bilan tuzilgan. Undagi voqealar butun umr shu Bo'ronli temir yo'l bekatida oddiy temiryo'lchi bo'lib ishlagan Qozongapning vafoti, uni dafn etish uchun Ona Bayit qabristoni tomon yo'lga tushish bilan boshlanadi.

Asardagi voqealar shu manzilga yetib kelguncha o'tgan vaqt ichida sodir bo'ladi. Asarning bosh qahramoni Edigey Jongeldin halol, mehnatkash odam. U urushda qatnashgan, urush qiyinchiliklarini ko'rgan. Bo'ronli bekatida temiryo'l ishchisi bo'lib ishlaguncha boshidan ne-ne ko'rguliklarni o'tkazgan, bariga chidagan. Manqurtlar haqidagi rivoyat «Asrga tatigulik kun» romanining butkul

zamonaviy ahamiyatini belgilovchi eng muhim qism va romanning butkul hujayralariga singib ketgan yetakchi g'oyalardan birining manbaidir. Rivoyatga ko'ra, qadim zamonda Sario'zak yerlari bosqinchi Junganglar tomonidan zabt etilgan. Ular asir olingan yerda jangchilarning sochlarini tap-taqir qirib, yangi so'yilgan tuya terisidan boshlariga qalpoq kiygizib, oftob qizig'ida cho'lga haydab qo'yganlar. Qiynoq shu qadar vahshiy va azobli bo'lganki, ularning ko'plari chidamay nobud bo'lgan. Omon qolganlari esa xotira degan narsadan mahrum manqurtga aylangan. Sario'zakning ana shunday manqurt yigitlaridan biri Jo'lomon o'tmishini xotirlash u yoqda tursin, hatto o'zini qutqargani kelgan tuqqan volidasini tanimaydi, na urug'i va na otasining nomini eslaydi. Bu yetmaganidek, jungjanglardan birining o'rgatuvi bilan o'z onasini otib o'ldiradi.

Ch.Aytmatov jahon adabiyotida o'ziga xos obro'-e'tiborga ega iste'dodli yozuvchidir. U qirg'iz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirib va boyitib, o'zidan oldingi shoir va yozuvchilarga o'rnak bo'larli darajada qirg'iz adabiyotida alohida maktab yaratdi. Jahon adabiyoti tarixida Ch.Aytmatovdek qisqa muddat ichida o'z asarlari bilan dunyodagi millionlab kitobxonlarni maftun qilolgan yozuvchilar kamdan kam topiladi. Uning birinchi asari 1950- yilda bosilgan edi. Oradan 6 yil o'tib, uning asarlari Yevropada shuhrat qozondi. Yana 5-6 yil o'tgach, Aytmatov asarlarini jahondagi 50 dan ortiq mamlakatning kitobxonlari o'z ona tilida o'qiy boshladi. Aytmatov ijodi qirg'iz adabiyotini yangi bosqichga ko'tardi, uning realizmiga chuqur zamonaviy ruh bag'ishladi. Aytmatov jahon adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi.

Ch.Aytmatov nasrning har bir janrida samarali ijod qilib, mazmun va badiiyat jihatdan yuqori saviyadagi nasriy asarlarni yaratdi. Aytmatovning birinchi badiiy asari «Gazetafurush Dzyudo» hikoyasi edi. Keyinchalik uning birin-ketin «Hoshim», «Sepoyachi», «Oq yomg'ir», «Bo'tako'z», «Baydamtol daryosida», «Og'ir kechik» hamda «Yuzma-yuz» hikoyalari maydonga keldi. Aytmatov yangi kuch, yangi shijoat bilan izlanishda davom etib, «Sarvqomat dilbarim», «Jamila», «Birinchi o'qituvchi», «Momo yer», «Alvido, Gulsari», «Oq kema», «Dengiz

sohili bo‘ylab chopayotgan olapar», «Erta kelgan turnalar» kabi ajoyib qissalarni yozdi. Ayniqsa, uning adabiy merosidagi «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat» romanlari so‘z san’atining qimmatli durdonalari sifatida har bir kitobxon uchun qadrlidir.

1980-yilda Ch.Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» asari e’lon qilindi. Bu muallifning birinchi romani edi. Roman avval «Novoy mir» jurnalida e’lon qilindi. So’ngra Frunzeda bosilib chiqdi. 1981- yil Moskvada «Molodaya gvardiya» nashriyotida u «Bo‘ronli bekat» nomi bilan chop etildi. Roman e’lon qilingandan keyin ko‘p o‘tmay ko‘pgina taqrizlar bosildi. Ularning hammasida ham yakdillik bilan roman hozirgi adabiyotning eng baquvvat asarlaridan biri sifatida baholandi. Adib asarga yozgan so‘zboshisida bu haqda shunday deydi: “Ma’lumki, mehnatga muhabbat inson qadr-qimmatini belgilovchi zaruriy me’yorlardan biridir. Shu ma’noda Edigey Jongeldi chin ma’noda haqiqiy mehnatkashdir. Zamin shundaylar tufayli barqarordir. U o‘z davri bilan mustahkam bog‘langan deb o‘ylayman. Uning mohiyati shundaki, u o‘z davrining farzandi.

Shuning uchun ham romanda tilga olingan muammolarga murojaat etar ekanman, kechagi jangchining, bugungi temir yo‘l ishchisining taqdiri orqali dunyoni ko‘rish men uchun muhim edi. Men qo‘limdan kelganicha shunga intildim”. Roman kitobxonlarning qalbini larzaga soladi, uni insoniyat taqdiri uchun o‘zi ham mas’ul ekanini o‘ylashga undaydi.

«Asrga tatigulik kun» romanini Chingiz Aytmatov ijodining gultoji deyish mumkin. Chingiz Aytmatov ko‘plab qissa va romanlar yaratdi. Bularning hammasi ham hajman kichik asarlardir. Biroq bu asarlar badiiy adabiyotda gap hajmda emas, yozuvchining mahoratida ekanini yana bir bor isbot qildi. Chingiz Aytmatov asarlari turkiy xalqlar nasrida yangi sahifa ochdi. Ularda ifodalangan gumanistik g‘oyalar, ma’naviy dunyosi go‘zal inson sharafiga o‘qilgan hayajonli madhiya sifatida bu asarlarni millionlab odamlarning sevimli kitobiga aylantirdi.

Ezgulikning yo‘li tekis va oson bo‘lishi mumkin emas. U doimo ayovsiz kurashlar silsilasining natijasi sifatida namoyon bo‘lishi va buning ustiga doim

g'olib bo'lavermasligi mumkin. Uning mag'lubiyatidagi g'alabani ko'rsatish, uni umidsizlikdan xalos etish, o'ziga va hayotga ishonchini mustahkamlash san'at va adabiyotning burchidir. Ch.Aytmatovning ana shunday romanlaridan biri «Qiyomat» romanidir.

Ch.Aytmatov «Qiyomat» romanida sho'ro turmush tarzini ko'klarga ko'targan jamiyat taraqqiyotining so'nggi bosqichidagi ana shu jarayonlarni badiiy aks ettiradi. To'g'ri, Aytmatov jamiyatni butkul qiyomat degani yo'q va bunday deyish ham mumkin emas edi, albatta. Adib jamiyatdagi qiyomatga moyil va o'xshash voqea-hodisalarni, taqdirlarni gavgdalantiradi.

Ma'lumki, diniy ma'lumotdagi qiyomatga ko'ra, yomonlar o'z qilmishlariga yarasha jazoga, yaxshilar esa o'z ezguliklariga munosib ajrga noil bo'ladilar. Ch.Aytmatovning «Qiyomat» romanida esa ezgulik va olijanoblikning, yaxshilik va to'g'rilikning, adolat va haqgo'ylikning qiyomat-qoyim darajasiga tushayotgan holatlari tabiat va jamiyat, inson va iymon muammolarini aks ettirish orqali ko'rsatiladi.

1.2. Chingiz Aytmatov asarlarida rivoyatlar va folklor an'alarining qo'llanilishi

Agar dunyodagi barcha xalqlar adabiyotiga nazar solinsa, bir qancha ijodkorlar asarlarida xalq og'zaki ijodining ta'siri kuchli bo'lganligini, folklor an'analari yozuvchilarning estetik idealini boyitishda bitmas-tuganmas manba bo'lib xizmat qilganligining shohidi bo'lamiz. Shu bois ulkan so'z san'atkorlari xalq ijodini tengsiz badiiy xazina sifatida baholadilar va undan ijodiy foydalanishga intildilar. Rivoyatlardan ijodiy foydalanish ko'pincha sintez xarakterga ega bo'ladi. Chunki badiiy asardagi folklor unsuri shu asarning barcha komponentlari bilan o'ta darajada birikib ketadiki, uni tashqi tomondan ajratib olish mumkin bo'lsa ham, biroq mazmun jihatdan alohida ajratib bo'lmaydi. Demak, folklorga xos an'analarning badiiy adabiyotdagi o'rnini ijodiy qayta ishlanish orqali belgilanadiki, ular yozma badiiy asarning zarur tarkibiy qismiga aylanib ketadilar. Mashhur adib Chingiz Aytmatov o'z maqolalaridan birida bu haqda maxsus to'xtalib shunday yozganida to'la haqli edi: "Men hamisha epos haqida fikr yuritaman. Bu xalq donishmandligining o'ta murakkab, ko'p qirrali tajassumidir. Lekin men eposni o'z asarlarimga shunchaki emas, balki uni o'zlashtirgan holda kiritaman".

Asar kompositsion qurilmasini tashkil etuvchi sujet elementlarini bir-biriga uyg'unlashtirish, voqelik tasvirining keng ko'lamlilik va rang-baranglilikini ta'minlash, qahramonlar xarakterini chuqur tahlil etish, g'oyaviy-estetik mohiyatini chuqurlashtirish, sujet rivojidagi mutanosiblikni saqlash va obrazlar silsilasining poetik birligini asoslash, badiiy tasvirning emotsional-estetik kuchini oshirish, tasvirlanayotgan voqelikning milliy-etnografik qiyofasini yaratish uchun afsona va rivoyatlar badiiy asar g'oyasiga singdiriladi. Afsona va rivoyat sujetini ijodiy qayta ishlash, rivoyatlarni badiiy asar to'qimasiga o'rinli qo'llay bilish ijodkorning mahoratidan kelib chiqib joylashtiriladi.

Qahramonlari dunyoqarashini, sujet chizig'idagi dolzarb mavzularni rivoyat va afsonalar orqali tasvirlash va rivoyatlardagi didaktik mazmun, falsafiy estetik

mohiyatga suyanish an'anasi sevimli yozuvchimiz Chingiz Aytmatov ijodining o'ziga xos yo'lini belgilab berdi. Chingiz Aytmatov bebaho asrlarga tatigulik asarlari bilan nafaqat qirg'iz va o'zbek adabiyotini, balki jahon adabiy merosida o'z o'rnini egallagan buyuk siymolar qatoridan o'rin egalladi. U hayotlik chog'idayoq mumtoz adib degan sharafl e'tirofga sazovor bo'ldi. Uning har bir yaratilgan asari jahon adabiy merosida bebaho xazina sifatida e'tirof etildi. Yozuvchi yaratgan har bir asar buyuk falsafasi, badiiy tasvir vositalarining keng ko'lamliligi, tilining soddaligi va rang-barangligi, musiqiy ohangdorligi bilan kitobxonni ong-u shuurini sehlraganday bo'ladi. Har qanday ulkan ijodkorning buyukligi o'zining milliy folklorini puxta bilishi, uning barhayot an'analarini ijodiy o'zlashtirish orqali o'lmas asarlar yaratishdagi mahorati bilan belgilanadi. Mana shu jihatdan qaralsa, o'z xalqining folklor xazinasini chuqur bilgan atoqli so'z san'atkori Chingiz Aytmatov butun ijodi davomida folklor an'analaridan bahramandlik nafasi bilan qalam tebratdi. Biroq uning folklor an'analaridan ijodiy foydalanishi boshqa ijodkorlardan ko'p jihatlari bilan farqlanib turadi. Xalq ijodiyotini chuqur bilgan yozuvchi realistik ijod prinsiplarini xalq romantikasi bilan izchil uyg'unlashtira oldi. Adib xalq ijodining inson aql-zakovatini o'tkirlashtiradigan romantikasiga ergashdi. U xalq eposi va rivoyatlariga xos qahramonlarning el-yurt manfaati uchun kurashish, tabiat va inson orasidagi mutanosiblikni ta'minlash kabi zavol bilmas xislatlariga amal qildi, o'z qahramonlari faoliyatida ularni yetakchi ma'naviy-axloqiy mezonlar sifatida muvaffaqiyat bilan qo'lladi.

Albatta, folklor an'analaridagi romantik pafos ham real voqelik zaminida tug'ilgan. Adib ana shu romantikaga murojaat qilar ekan, ularning har biriga tiplar yaratish, g'oyalar an'analariga hayotiy mezonlarni singdirish asosida yondashdi, o'z qahramonlari xarakterini konkret davr, tipik sharoitlar talabi bilan oziqlantirdi. Bu narsa yozuvchi qahramonlari tushunchasida yashash kurashdan iborat degan hayotiy falsafaning hukmronlik qilishida yorqin namoyon bo'lgan. Xalq ijodiga xos milliy ruh adib ijodiga o'zgacha sayqallanib, ijodiy ishlangan holda kiradi.

Shu bois adib romantikasi uning obyektiv realizmini ta'minlashga xizmat qiladi. Folklarga mehr-muhabbat, uning an'analaridan madad olish Chingiz Aytmatov ijodining yetakchi tamoyillaridan birini tashkil etadi. Chingiz Aytmatov adabiyotning xalqchilligini, optimistik ruhini ta'minlashni, eng avvalo, folklorda ko'rdi.

Bo'lajak adibga yoshligida buvisi Oyimxon aya va uning qizi Qoraqiz opa juda ko'p rivoyat, afsona va qo'shiqlar aytib berishgan. Yozuvchi asarlarida xalq og'zaki ijodi janrlaridan unumli foydalanish usuli bir tarafdin bolalikdan eshitgan ana shu rivoyatlarning muayyan ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan qirg'iz xalq og'zaki ijodining bebaho merosi bo'lmish "Manas" xalq eposining ta'siri ostida uyg'ondi.

"Manas" – qirg'iz xalqining uzoq o'tmishidan hikoya qiluvchi, uning tarix zarvaraqlarini yorituvchi yorqin sahifa sifatida o'sha xalq shoir va adiblarining ilhom sarchashmasini yuzaga chiqargan manba hisoblanadi. Turkiy xalqlar hayotida "Avesto" qanchalik bebaho ma'naviyat ozuqasi hisoblansa, qirg'iz xalqida "Manas" tabarruk so'zlar gavharidan iborat buyuk san'at asari sifatida e'zozlanib kelingan. "Manas"da qirgiz elining tarixi, Manasning qahramonligi, haqiqat uchun olib borgan kurashlari, quvonch va qayg'usi, omonlik va yomonlik, g'aroyib taqdirlar o'z ifodasini topgan. Qirg'iz xalq eposi "Manas" o'sha xalqning fidoyi shoir-u dostonchilari tomonidan bugungi kungacha to'lig'icha saqlanib kelib avlodlarga yetkazildi. Ana shu manbalarning o'zi yozuvchini xalq og'zaki ijodiga, rivoyat-u afsonalarga bo'lgan qiziqishini uyg'otgan bo'lsa ajabmas.

Chingiz Aytmatov qomusiy "Manas"ning ulkan mavzulari orasidan birgina rivoyatni olar va uni ijodiy o'zlashtirib, boyitib, yangi asar yaratar ekan, bu bilan milliy eposga murojaat etishning o'ziga xos yangi uslubini kashf etdi. Bu uslub epos qadrini bir necha barobar yuksaltirdi. Asarlarining ko'pchiligida metaforik-simvolik vositalar yordamida xalq eposidagi umuminsoniy qadriyatlarga munosabat bildirildi. "Manas" ning qadimiy rivoyatlari qirg'iz xalqi

ma'naviyatidan o'sib chiqib, mohiyatan umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarildi.

Eposning kichik zarrasidan kelib chiqib, ulkan umumbashariy falsafa yaratgan Chingiz Aytmatovga xos uslub va vositalar zamonaviy romanchilik yo'nalishida alohida o'rin egallaydi. Ch.Aytmatovning eposning har qanday katta-kichik unsurlarini tadqiq etish yo'li nihoyatda progressiv bo'lib, o'z navbatida, u xalq ijodidan foydalanib yaratilgan asarlarda majoziy vositalarni idrok qilishni, epik vositalardan hosil bo'lgan qadriyat muayyan bir xalqqagina mansub bo'lmay, balki umuminsoniy ma'no-mazmun kashf etishini; zamon va inson munosabatlarida o'zlikni anglash, qadriyatlarni e'zozlash tuyg'usining ulkan ahamiyatini anglashga o'rgatadi.

Chingiz Aytmatov prozasida "Manas" eposining ayrim olingan kichik rivoyatlari asosiy sujet bilan bog'lab talqin qilinishi uning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi.

Folklor Chingiz Aytmatov ijodining muhim qismi, voqelikning turli qirralarini o'rganishga imkon beruvchi o'ziga xos tayanchdir. Shu bois aytmatovshunoslikda mazkur yo'nalish alohida o'rganiladi. Tadqiqotchilar Ch.Aytmatov ijodida qirg'iz folklorining barcha katta va kichik eposlari namoyon bo'lishini qayd etish bilan birga, adibning ularga ijodiy yondashish mahoratini ham e'tirof etganlar.

"Yozuvchi bo'lganim uchun emas, balki bir oddiy qirg'iz sifatida ham "Manas" menga nihoyatda qadrli. Unga qayta-qayta murojaat etarkanman, bu epos nafaqat qirg'izga, balki inson zurriyodining barcha qavmiga ahamiyatli ekanligini tushundim",- degan edi Chingiz Aytmatov xitoylik jurnalist Su Tszishan bilan bo'lgan so'nggi intervyusida⁴. Zotan, "Manas" ulkan qomusiy meros sifatida ko'plab adabiy-badiiy asarlarga manba bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, uning ummonday qa'ridagi eng kichik gavharlarni o'rganish, ularda yashiringan hikmatni

⁴ www.ziynet.uz

o‘z prozasida qayta badiiy talqin qilish orqali Ch.Aytmatov nafaqat qirg‘iz adabiyoti, balki jahon adabiyotini ham yangi mazmun va mohiyat bilan boyitdi.

Chingiz Aytmatov qirg‘iz xalq og‘zaki ijodiyotidagi xilma-xil usullardan o‘z asarlarida mohirlik bilan foydalandi. Ma’lumki, xalq yaratgan afsona, ertak, rivoyat va maqollarda o‘sha xalqning axloqiy qarashlari ham muhrlangan. Chingiz Aytmatov ijodidagi xalq og‘zaki ijodining motiv va usullari uning realistik tasvir usullarini inkor qilmaydi, balki ijtimoiy-tarixiy miqyosdagi hikoya qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, adib asarlariga jozibadorlik, maftunkorlik fazilatlarini yuqtirib, o‘quvchini o‘ziga butunlay sehrlab olish qudratini baxsh etadi⁵.

Tadqiqotchilar Ch.Aytmatov ijodida qirg‘iz folklorining barcha katta va kichik eposlari namoyon bo‘lishini qayd qilish bilan birga, adibning ularga ijodiy yondashish mahoratini ham e’tirof etganlar.

Aytmatovshunoslarning ko‘rsatishicha, “Manas” eposidagi “Manqurt afsonasi” Chingiz Aytmatov e’tiborini tortgan folklor obrazlari talqinidagi tipik transformatsiya namunasi bo‘lib, “Asrga tatigulik kun”, “Oq kema”, “Qiyomat”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar”da va boshqa bir necha asarlarida ham folklor motivlariga suyangan adib, uning yangi talqinini yaratdi.

Adib mahorati ayniqsa, folklor sujet va motivlari, tasvir usullari, kompozitsiya yaratish yo‘llaridan ijodiy foydalanishida ko‘zga tashlanadi. Folklor an’analaridan bunday foydalanish sintez xarakteriga ega. Folklor an’analarini realistik voqealar bilan sintezlashtirish Ch.Aytmatovning xalq ijodidan novatorona foydalanishdagi mahoratini ko‘rsatadi. Folklor an’analariga murojaat qilar ekan, adib ulardan o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatiga moslarini tanlaydi. Uning asarlarining xalqchilligi, chuqur realistik xarakteri ham mana shunda. Shu o‘rinda yana bir narsani ham alohida qayd etish kerakki, Ch.Aytmatovdek ulkan san’atkorning folklor an’analariga murojaat etishi, xalq ijodining barhayot

⁵ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent, O‘qituvchi, 2011, 14- bet.

an'analaridan ijodiy o'zlashtirish o'sha davr kitobxonlarining saviyasini nazarda tutish bilan bog'liq edi. Chunki u yangi zamon, yangicha hayot mezonlarini, axloq normalarini o'zida mujassamlashtirgan kitobxonga tezroq hazm bo'ladigan shaklga ham alohida e'tibor bermasligi mumkin emas edi. Bunday xalqona shakllarni esa xalq ijodining o'zi berishi muqarrar. Ch.Aytmatov yirik san'atkor sifatida buni o'z vaqtida tushunib yetdi va folklor an'alarini ijodiy o'zlashtirib, ulkan yutuqlarga erishdi.

Yozuvchi Chingiz Aytmatov qahramonlaridan biri Abutolib Quttiboyev tilidan ham bu bebaho merosimiz haqida bir o'rinda ma'lumot keltirib o'tadi: "Qadim zamonlarda odamlar bolalariga meros qoldirishgan. Yaxshilikkami, yomonlikkami, har holda, har kim qurbiga yarasha meros qoldirgan..."⁶. Yozuvchi ushbu qahramon tilidan aytilgan so'zlar orqali kitobxonga u qoldirmoqchi bo'lgan meros uning boshidan kechirgan yodnomalari, yozib qoldirgan xotira daftari ekanligiga ishora qiladi: "Mening rivoyatlarim – urushda boshdan kechirganlarim. Farzandlarimga atab partizanlik daftarimni bitayotirman. Ko'rgan-bilganlarimni, boshimdan kechirganlarimni qanday bo'lsa shunday yozib qoldiraman. Bolalar ulg'ayganda asqotib qolar... Qadimgi qo'shiqlarimizni yozib oldim, keyin ularni topib olish qiyin bo'ladi. Qo'shiq mening tushunchamda – o'tmish xabarchisi"⁷. Yozuvchi ta'kidlaganidek, xalq og'zaki ijodiga mansub barcha janrlar "o'tmish xabarchisi"dir. Shu fikrlarning o'zigina yozuvchining xalq milliy merosiga - xalq og'zaki ijodiga mehri qanchalik balandligini ko'rsatib turibdi.

Arxaik miflardan zamonaviy talqinda foydalanish, zamonaviylik metaforasi sifatida mifologik obrazlarni qayta yaratish va mifga badiiy voqelikni ifoda etishning estetik vositasi sifatida murojaat qilish – Chingiz Aytmatovning mif poetikasiga olib kirgan yangiligidir⁸.

⁶ Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent, 1989, 483- bet.

⁷ Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent, 1989, 552- bet.

⁸ Sizdiqboyev N. Chingiz Aytmatov badiiyatining ayrim qirralari // „Til va adabiyot ta'limi“ 2008- yil, 12-son, 52- bet.

Chingiz Aytmatov ertak genezisi modellaridan keng tarzda foydalanib, o'z falsafiy mushohadalarini mushtarak maydonga yo'naltirishga harakat qiladi. U rivoyatlarni qo'llash orqali milliy an'analardan asarni oziqlantirib, psixoanalitik talqinga yo'l ochadi.

Chingiz Aytmatovning ijodi – yangicha tafakkur tarzining samarasi o'laroq, o'ziga nisbatan ongli munosabat, idrok, saviya va yuksak madaniyat sohibi bo'lishni talab etadi. Uning asarlariga eskicha andoza yo shakl bilan yondashib bo'lmaydi. Afsona va rivoyat sujetlari asar kompozitsiyasini boyitib, poetik tasvir vositalari orqali ifodalanishi, ijodiy fantaziya orqali falsafiy mohiyatni chuqurlashtirish Chingiz Aytmatov ijodining muhim qirrasini hisoblanadi. Yozuvchining bu boradagi fikrlarini eslatib o'tish o'rinlidir: “Xotirasi bo'lmagan, tarixi bo'lmagan, ko'hna asotirlar, afsonalarda, klassik adabiyotda aks etgan ma'naviy biografiyasi bo'lmagan odam – ruhan qashshoqlikka mahkum va bunday odam murakkab zamonamiz hayotini anglashga ojizdir”⁹. Yozuvchi “ruhan qashshoqlikka mahkum va zamonamiz hayotini anglashga ojiz” obrazlar tasvirini yaratarkan, albatta, o'z o'rnida ularga kesatq, ibrat ma'nosida turli rivoyatlarni asar kompozitsiyasiga singdirib, asarning jozibasini, ma'naviy qimmatini oshirishga erishgan. Bir tomondan, xalq og'zaki ijodi an'alaridan, ikkinchi tomondan, jahon adabiyoti an'alaridan ijodiy oziqlanish Ch.Aytmatovga murakkab hayotiy masalalarni to'g'ri badiiy talqin qilishga imkon berdi.

Chingiz Aytmatov ijodida xalq afsona va rivoyatlari ilg'or va ulug'vor falsafiy g'oyalarni, ko'z ilg'amas nozik mushohadalarni ifodalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rivoyatlar mazmuni bilan zamondoshlari voqeligini qiyoslab, yangicha ijodiy izlanishlarga qo'l o'radi. “Manas” asosida vujudga kelgan rivoyatlarga yangicha ruh bag'ishlab, g'oyaviy-badiiy falsafani yuzaga chiqaradi, ular zahiriga yashiringan umuminsoniy g'oyalar vositasida hayotiy muammolarni o'rtaga tashlaydi.

⁹ Matjon O. Haqqush qichqirig'i. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979, 3- bet.

Adib o‘z asarlari orqali xalq og‘zaki ijodi an‘analarining ahamiyati hech qachon yo‘qolmasligini, ular ijodkor mahorati bilan bog‘liq holda hamma vaqt zamonaviy mohiyat kasb etishlarini amalda isbotlab berdi.

Xullas, rivoyatlarda xalqimizning epik an‘analari, voqelikni hayotiy uydirma vositasida aks ettirish borasidagi ko‘p asrlik ijodiy tajribalari hamda tarixiy taraqqiyotimizning turli bosqichlariga doir muhim ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan. Rivoyatlarning afsona, naql, ertaklardan janr xususiyatiga ko‘ra o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Rivoyatlarni bir so‘z bilan aytganda tarixdan xabar beruvchi haqiqatlar deb aytish mumkin. K.Imomov, B.Sarimsoqov, U.Jumanazarov, H.Zarifov kabi folklorshunos olimlar folklorning ushbu janri xususida qimmatli fikr-mulohazalarni bildirganlar. Rivoyat janrini o‘rganish asosida uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat degan xulosa kelib chiqdi:

Birinchidan, rivoyatlar sodda ixcham sujet tuzilishiga ega. Ikkinchidan, rivoyatda hayotiy uydirma ustunlik qilib, voqea sodir bo‘lgan joy aniq bir makonda: qishloq, shahar yoki biror manzilda ro‘y beradi. Uchinchidan, rivoyatda ijtimoiy voqelik asosiy o‘rinda tutib, ta‘lim-tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. To‘rtinchidan, rivoyatda boshqa janrlarga nisbatan badiiylik darajasi kuchsiz bo‘lib, rivoyat qahramonlari g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lmaydilar, aksincha, ular dono, adolatparvar sifatida faoliyat ko‘rsatadilar.

Shoir va yozuvchilar o‘z asarlarida folklorning rivoyat, afsona janrlaridan unumli foydalanib, bebaho asarlar yaratganlari hammamizga ayon. Sevimli adibimiz Chingiz Aytmatov ijodida ham folklorga mehr-muhabbat, uning an‘analaridan madad olish yetakchi tamoyillardan birini tashkil etadi. Adibning xalq og‘zaki ijodidan keng ko‘lamda foydalanishida, avvalambor, oilaviy muhit sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qirg‘iz xalq og‘zaki ijodining bebaho merosi bo‘lmish “Manas” xalq eposining ta’siri ostida uyg‘ondi.

Chingiz Aytmatov folklorga xos nozik poetik uslub elementlarini chuqur o‘zlashtirib, ulardagi ilg‘or gumanistik g‘oyalarni rivojlantirdi.

Xullas, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan qiziqish, u orqali inson ma’naviy olamini ochish Chingiz Aytmatovning folklor an’analariga munosabatini belgilovchi mezonlardan biridir.

2- BOB. CHINGIZ AYTMATOV IJODINING MAKTAB DARSLIKLARIDA O‘RGANILISHI

2.1. “Oq kema” asarining o‘rganilishi

Yozuvchining o‘rta maktabning 5-6-sinf o‘quvchilarida yuksak insoniy sifatlar shakllantirishga xizmat qilishi jihatidan tengsiz imkoniyatga ega asarlaridan biri “Oq kema” qissasidir. Asarda qanoat, kamtarlik, rahm-shafqat, bag‘rikenglik singari ezgu fazilatlar ochko‘zlik, shafqatsizlik, manfaatparastlik kabi illatlarga qarshi qo‘yib tasvirlanadi. Betakror uslubda bitilgan bu asar matni o‘qituvchi tomonidan o‘qib berilishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi qissa matnini soatlarga taqsimlab, qaysi qismi qachon o‘qilishi lozimligini rejalashtirib olishi lozim. Buning uchun asar matni muayyan bo‘laklarga ajratilishi ham, ona tili bilan adabiyot soatlarini birlashtirib to‘lig‘icha o‘qilishi ham mumkin. Har qanday matnning badiiyligini ta’minlagan asosiy jihat uning yaxlitligi bo‘lgani uchun ham asar bilan tanishish va uni tahlil etishda shu butunlikni saqlab qola bilish zarur.

O‘qituvchi qissa matnini o‘qiyotganda, o‘quvchilarning darslikdan uzilmay kuzatib borishlariga erishilmasa, xayol chalg‘ib, asar to‘la idrok etilmasligi mumkin. Matnni o‘qish asnosida o‘quvchilar tasavvurida qissa qahramoni yashagan sharoit jonlanishiga erishish kerak. Adabiy qahramon tushgan sharoitini tasavvur qilolmagan o‘quvchi uning tuyg‘ularini ham his etolmaydi. Bu esa matnni anglamaslikka olib keladi.

Qissa tahlilida o‘quvchilar diqqati dastlab bolaning ikki ertagi haqidagi tasvirga qaratiladi. Bu ertaklarning har biriga o‘ziga mos sarlavhalar topishni topshirish o‘smirlarni mustaqil fikrlashga undaydi. Qissa qahramonining portfelga ega bo‘lishdan bunchalar quvonishi sababiga o‘quvchilar diqqati tortilishi lozim. Boladagi o‘ychanlik, cheksiz hayrat, hatto jonsiz narsalarni ham his etish sabablari haqida o‘quvchilarda fikr shakllanishi muhim. Shuningdek, o‘quvchilar diqqati bolaning toshlar bilan do‘stona suhbatlashishi, chaqirtikanakni dushman deb bilishi

sababiga qaratilib, bularga har bir o'quvchining o'z javobi bo'lishiga erishish lozim.

Bolaning ko'ngliga pechak gullarining qaysi sifatlari xush yoqqanini aniqlashga urinish o'quvchilarni asarga chuqurroq olib kiradi. Bolaning tevarakdagi narsalarga munosabati, ularning barchasini o'ziga tegishli deb bilishi uning tabiatiga xos sifatlarni ko'rsatuvchi belgi ekanini o'quvchilar anglashsa, asarni tushunish osonlashadi. Shiroljinning bola ko'ngliga yaqinligi, uning bu buta bag'rida yashirincha yig'lagisi kelishi sabablari haqida mulohaza yuritish o'quvchilarda shaxsga xos sifatlarni tarkib topdiradi. Ular qo'yilgan savollarga matn asosida mantiqli javob topishga urinsalar, darsdan kutilgan natijaga erishiladi.

O'quvchilar e'tiborini bolaning bulutlardan zavqlanishiga, ularning turli shakllarga kirishidan go'zallik topa olishiga, kumush rang supurgilar holati va uning bola ruhiyatiga ta'siri tasviriga qaratish o'smirlarni badiiy tasvirdagi noziklikni payqash va undan lazzatlanishga o'rgatadi.

Bolaning bobosi Mo'min cholning «ochiq ko'ngil, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hozir-u nozirliqi, hammaga xushmuomalaligi» kabi fazilatlari ko'pincha uning zarariga xizmat qilishi sabablari haqida o'ylab ko'rish o'quvchilarda ezgu insoniy fazilatlar qaror topishiga ko'mak beradi. Atrofdagilarning boboga munosabati to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini baholashga urinish o'quvchilarda odamlarga, hayotiy holatlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazar shakllantiradi. Odamlardagi loqaydlik va oqibatsizlikning qanchalar dahshatli illat ekanini his qilish o'quvchilarda nafrat uyg'otadi. Nafratning uyg'onishi o'smirlarda bunday illatlarga ega kimsalarga qarshi kurashish hissini shakllantiradi.

Matndagi «Mo'min bug'u avlodidan bo'lib, bu bilan g'oyatda faxrlanar, va o'z qabiladoshlaridan birontasining ma'rakasidan qolmasdi» tasviriga bolalarning diqqatini alohida qaratish kerak. O'quvchilar shuncha azoblar ko'rganiga qaramay, Mo'min cholning asarda «kamdan-kam uchraydigan baxtli odam» deb tasvirlanishi

sababini tushunishga urinib ko'rsalar, o'zlarida odamiylik sifatini tarkib topdira boradilar. Qilgan yaxshiliklari evaziga hech kimdan hech narsa kutmaydigan, ayrimlarning masxaralashidan ham og'rinmaydigan bobo tabiati bolalarni o'yga toldiradi. Odamning baxti o'zgalarning tan olishidami yoki boshqalarning munosabatlaridan qat'i nazar o'z ko'nglidagiday yashay olganidami ekanligi haqida mulohaza yuritish o'quvchilarni hayotga sinchiklab qarashga, odamlarning xatti-harakatlariga jiddiyoq baho berishga olib keladi. Odamlar ma'naviyatini kemirib tashlaydigan manmanlik balosiga munosabat o'smirlar ko'nglini tozalaydi. Boriday ko'rinishga va ko'ringaniday bo'lishga intilish komillikning ilkinchi talabi ekani bolalar ruhiyatiga o'rashadi.

Bolalar diqqati odamlarning Mo'min cholga xuddi telbaga qilganday muomala qilishi sabablariga qaratilsa, ular hammaning ham Mo'min cholday emasligi to'g'risida o'yga tolishadi. O'quvchilar bobo tabiatini o'rganib, uni hurmat yoki achinishga loyiq odam deb hisoblashlari boisi haqida o'z to'xtamlariga ega bo'lishadi. Mutlaqo izzattalab bo'lmagan Mo'min cholning kengashga chaqirishmaganda odamlardan qattiq ranjishi sababi uni chetlab o'tganlaridan emas balki, «qadimiy urf-odatlarining poymol» qilinayotganidan ekani bolalar ko'ngliga yetishi zarur. O'z qadri toptalganidan emas, azaliy urf-odatlar poymol qilinganidan xafa bo'la oladigan odamni tushunish tuyg'usi o'quvchilar ko'ngliga o'rashsa, ularning shaxs sifatida kamol topishi tezlashadi.

O'rozqul va Bo'key xola munosabatlari tasviri orqali bolalar hayotning chigal, azobli qirralari borligini ham bilib olishadi. Shunda har bir o'quvchi ota-onasi uchun o'zining qanchalar aziz ekanligini anglab yetadi. O'smirlar O'rozqulning ham dardini his qilib, unga achina olsalar, ularda ezgu sifatlar shakllanishi tezlashadi. O'quvchilar kattalarda farzand, bolalarda ota-ona borligining qanchalar buyuk ne'mat ekanini his qilib, uni qadrlashga o'rganadilar.

O'quvchilar bolaning portfeli va durbini bilan xuddi odam bilan gaplashgandek gaplashishiga e'tibor qilib, buning sababi to'g'risida o'ylab ko'rsalar, qahramon tabiatini teranroq anglaydilar. Boboning nabiraga ko'lob

yasab berishi va bolaning orzulari bilan ko'lob o'rtasidagi aloqaga o'quvchilar diqqati qaratilsa, mashg'ulot samarali bo'ladi. O'quvchilar bolaning oq kemaga bog'lanib qolganligi, uni ko'rganda yuragi gupirib ketishi sababi haqida o'ylagan o'quvchilar uning ko'nglidan kechayotgan hayajonni his etadilar.

Qahramonning tashqi ko'rinishi tasviri ham o'smirlar e'tiborini tortishi lozim. Asarda bolaning chiroyli kipriklar o'rniga chiroyli bo'lmasa-da, suv ostini ko'ra oladigan ko'zlarni orzu qilishi sababini o'ylab ko'rish qahramonni anglashga yo'l ochadi. Bola ko'nglida baliqqa aylanib, oq kemaga suzib borish istagi paydo bo'lishi sabablari aks etgan o'rinlar matndan topib, izohlanishi lozim. Bolaning ota bilan uchrashib suhbatlashish borasidagi tiyiqsiz orzusi, bunga doir nurli xayollar surishi, onasini esa eslamasligi sababi xususida o'ylab ko'rish qahramonni yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Asarning shoxdor Ona bug'u ertagi berilgan qismini o'rgatishda ham qahramon tuyg'ularini o'quvchilarga yuqtirishga urinish kerak. Buning uchun Enasoy haqidagi qadimiy turkiy qo'shiq matni chuqurroq tahlil etilishi lozim. Shunda o'smirlar o'z yerlariga chuqur mehr qo'ygan bobolarni his qilishadi. Qo'shiq tufayli ko'ngilda paydo bo'lgan alam va og'riq boisi haqida o'ylab ko'riladi. Bobolar yashagan Enasoy bugun bolalarning yurti emasligi kishida hasrat paydo qiladi. O'quvchilar matnni o'rgansalar, daryoning Enasoy deb atalishi zahirida ham ma'no borligini tuyadilar.

Qissadagi «Odam odamga ichi achimasdi» tasviriga o'quvchilar e'tibori tortilishi muhim. Inson qanchalik olijanob va yaratuvchi bo'lsa, shunchalik vahshiy va buzg'unchi hamdir. Qachon qaysi xislatini qanday namoyon etish uning o'ziga bog'liq. Odam o'z nom-u martabasiga loyiq bo'lishi uchun uning ko'nglidan go'zallik joy olishiga erishish kerak. Ko'ngli chiroyli, go'zallikni sevadigan odam o'zgalarni ayaydi, razillikdan hazar qiladi, yomonlikdan yiroq bo'ladi. Tahlil o'quvchilarda shu to'xtamlarni shakllantirishi kerak.

O'rmonda kutilmaganda paydo bo'lib, odamlarni sodir bo'ladigan dahshatli falokatdan ogohlantirishga uringan sirli qush va bunga e'tibor bermagan kishilar

tasviri o'smirlar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Bolalar ko'mish marosimidagi udumlarning aqlga muvofiqligi, miqyosi va oqibatlari haqida fikr yuritishlari lozim. Shu o'rinda elatning o'z ulug'iga bo'lgan e'tibori ham ular e'tiborida bo'lishi lozim.

O'quvchilar yov butun urug'ni qirib tashlaganda, o'rmonga ketganliklari sabab tirik qolgan o'g'il va qiz bolaning ruhiy holati, o'y-fikrlari borasida mulohaza yuritishi lozim. O'smirlarga kimsasiz qolgan bolalar holatini tuydirish olis ajdodlarning dardini, ularning boshlariga tushgan kulfat qay darajada og'ir ekanini anglash imkonini beradi. G'alabani nishonlayotgan dushman qabilasidagilarning tirik qolgan bolalarni ko'rib qo'rqib ketganligi sababi to'g'risida o'ylab ko'rish asar mohiyatini anglashga xizmat qiladi. G'olib qabila a'zolari bilan ularning yetakchisi o'rtasidagi farqqa o'quvchilar e'tibori qaratilishi joiz. Qabila boshlig'ining bolalarni shu yerning o'zida o'ldirtirib yubormaganligi sababini izohlashga urinib ko'rish kerak.

O'quvchilar oqibat, ezgulik, sadoqat borasida inson bilan bug'uni solishtirishga urinib ko'rishlari lozim. Insonni yaxshi ko'rib, uning bolalarini saqlab qolishdan ko'ra, undan nafratlanish va urug'ini quritishga asosi ko'proq bo'lgan ona bug'uning ezgulikka ishonib, kimsasiz o'g'il va qiz bolaga yordam bergani sabablari haqida o'ylash o'quvchilarni yuksaltiradi. Baymoq kampir nimaga asoslanib ona bug'uga: «...odam bolalari sening yaxshiligingga yomonlik bilan javob qaytarishsa, o'zingdan ko'r» deganini o'quvchilar izohlasalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona bug'uning yetim bolalarga qarata aytgan: «Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutmaydi. Ularga o'z ona tillarida so'zlash va kuylash yoqimli bo'ladi. Insonlar qanday yashashi kerak bo'lsa shunday yashanglar», - so'zlarini sharhlash o'quvchilarni asar ichki qatlamlariga olib kiradi. O'smirlar ona bug'uning shoxlarida beshik olib kelishida qanday ramziy ma'no borligi borasida o'ylab ko'rishlari kerak. Odam bo'lmagan joyda beshik va uning jihozlari qayerdan paydo

bo'ldi degan savolga maishiy o'lchovlar bilan javob berib bo'lmasligini bolalar sezadilar.

Bug'uboy avlodlarida shoxdor Ona bug'uga e'tiqod qo'yilishi va unga putur yetishining sababi haqida o'quvchilar bosh qotirishlari zarur. Ular bunga matndan javob topib, munosabat bildirishlari lozim. Shunda ular bitta odamning, ko'pchilikning, butun millatning ma'naviy buzilib ketishi sabablarini anglaydilar. O'smirlar matndan odamlar ma'naviy tanazzuli asarning qaysi o'rinlarida yorqin ko'rinishini aniqlasalar, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar asardagi «Butun umr bug'u nima ekanligini ko'rmagan yangi insonlar tug'ildi» jumlasini o'zlariga qay darajada tegishli ekanini o'ylab ko'rishlari lozim.

Bolaning shoxdor ona bug'u kallasini ko'rgandagi holati tasvirlangan o'rinni o'quvchilarga qayta o'qitib, ulardan bu haqdagi fikrlarini so'rash o'smirlarning ruhan yuksalishiga sabab bo'ladi. Asar qahramonining ruhiyati, kechinmalari, holati tasviridagi birorta detalni nazardan chetda qoldirmaslikka urinish o'quvchini adabiy qahramon misolida o'zgani his qilishga o'rgatadi.

O'rozqulning o'ldirilgan bug'u shoxini olish uchun qilgan harakatlariga o'quvchilar munosabati o'rganilishi zarur. Adabiyot darslari uchun asar yordamida bolalarning nimanidir bilib olishlaridan ko'ra, matn ularda qanday tuyg'u qo'zg'aganligi muhimroq. Olijanob bobo ta'sirida dunyo va odamlardan faqat yaxshilik kutib yashashga o'rgangan pokiza bolakayning ishonchi vayron bo'lgach, u avval turgan joyida, o'zi ko'rgan odamlar bilan qolishi mumkin emasligini o'smirlar anglab yetishlari muhim. O'quvchilar bola o'zini o'ldirmagani, balki insonni razolatga botirib, manfaatga yukuntirgan olchoq dunyoni tashlab, o'z pokiza olamiga ketganligini tushunib yetsalar, ma'nan yuksaladilar. Bolaning bu dunyoga sig'may qolib, qabohat-u adolatsizlikka isyon qilganini o'quvchilar tushunishsa, pedagogik maqsadga erishilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, 7-sinfda quyidagi ishlanma orqali dars o'tilsa ham samarali natijaga erishish mumkin:

Mavzu: Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi hamda uning “Oq kema” qissasi ustida ishlash.

Dars maqsadlari:

Ta’limiy maqsad: mavzu haqida tushuncha hosil qilish, tahlillash usullarini o‘rgatish;

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarning insonni tushuna olish, insoniy qadr-qimmat fazilatlarini tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: hayotiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil tahlil qobiliyatini o‘stirish, asarni analiz va sintez qila olishini ta’minlash;

Dars metodi: Interfaol.

Dars usullari: “Zehn boshqotirmasi”, kichik ma’ruza, bahs, aqliy hujum, “Adashtirdim, toping-chi?”, savol-javob, muammoli vaziyat, tadqiqot.

Dars jihozi: Darslik, Chingiz Aytmatov asarlari, “Oq kema” qissasi, kompyuter, rangli qog‘ozlar.

Dars rejasi:

Uy ishini tekshirish va baholash – 10 min.
O‘tilgan darsni mustahkamlash – 5 min.
Yangi mavzuni o‘tish – 10 min.
Yangi mavzuni mustahkamlash – 10 min.
Baholash – 3 min.
Uy ishi berish – 2 min.

P.S. REGLAMENT dars jarayonida o‘zgarib turishi mumkin. Chunki adabiyot darslari qoliplarga sig‘maydi!

	<u>Dars shiori:</u>
	Dars – teatr. Lekin siz tomoshabin emassiz!

Darsdan kutiladi:

1. Erkin fikr bildirish mahoratini namoyish etish;
2. Faollik;
3. Ijodkorlik;
4. Zarur xulosa chiqarish;
5. Insonni tushunish va uning ruhiyatini anglash;

Darsga qo'yiladigan talablar:

1. O'zaro hurmat;
2. Fikrni erkin va ravon ifodalash;
3. O'zgalarning fikrini tinglash va hurmat qilish;
4. Adabiy til me'yorlari asosida so'zlash.

Dars borishi.

Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin.

Chingiz Aytmatov

O'tilgan darsda Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi yoritilgan edi. Uyga vazifa yozuvchi hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish, 5x15 konspekt usulida mustahkamlash, "Oq kema" qissasi matni bilan tanishib kelish edi.

Hozir esa o'quvchilarga Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini qay darajada zehn bilan o'rganganliklarini aniqlash maqsadida ularga "Chala xat" zehn matni beriladi. Unda o'quvchilar o'zlarining sinchkovliklarini aniqlaydilar. Buning uchun o'quvchilar 2 guruhga ajratilib, jamoa sardorlari aniqlanadi. Shundan so'ng har bir guruhga 1 tadan zehn matni tarqatiladi. Reglament: 5 minut


“Chala xat” zehn matni quyidagicha:

Bizning _____da _____ odatiga qat’iy rioya qilinardi. ...Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi _____ daryosi qirg’og’ida eski, yerga botib borayotgan _____ bor. ... Bu _____ shunchalik qiziq ediki, u mudrab uxlab qolgan vaqtida ham men uni uyg’otib, _____ning davomini aytib berishini so’rardim. ...19____-yil mening otam — partiya xodimi, _____dagi qizil professura institutining tinglovchisi — qatag’on qilindi. Bizning oila _____ga ko’chib keldi. Oilamizda _____ farzand, men _____ edim. ... Men juda erta ishlay boshladim: _____ yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim. ... Institutda o’qish davomida badiiy adabiyot meni o’ziga tamoman band etganini aniq sezdim. Shu sabab 19____-yili Moskvadagi _____ kursiga o’qishga kirdim. Faqat _____ yilgina davom etgan mazkur kurs menga favqulodda ko’p bilimlar berdi. ... Hech kim o’z-o’zidan yozuvchi bo’lib qolmaydi: yillar sabog’i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo’lgan qiziqish va e’tiqod orqali bunga erishish mumkin.

“Chala xat” zehn matnining to’liq varianti

Bizning **ovulimizda yetti otasini bilish** odatiga qat’iy rioya qilinardi. ...Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi **Qurqurov** daryosi qirg’og’ida eski, yerga botib borayotgan **tegirmon toshi** bor. ... Bu **tushlar** shunchalik qiziq ediki, u mudrab uxlab qolgan vaqtida ham men uni uyg’otib, **tushning** davomini aytib berishini so’rardim. ...1937-yil mening otam — partiya xodimi, **Moskvadagi** qizil professura institutining tinglovchisi — qatag’on qilindi. Bizning oila **ovulga** ko’chib keldi. Oilamizda **to’rt** farzand, men **eng kattasi** edim. ... Men juda erta ishlay boshladim: **10** yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim. ... Institutda o’qish davomida badiiy adabiyot meni o’ziga tamoman band etganini aniq sezdim. Shu sabab 1956-yili Moskvadagi **Oliy adabiyot** kursiga o’qishga kirdim. Faqat **ikki** yilgina davom etgan mazkur kurs menga favqulodda ko’p bilimlar berdi. ... Hech kim o’z-o’zidan yozuvchi bo’lib qolmaydi: yillar sabog’i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo’lgan qiziqish va e’tiqod orqali bunga erishish mumkin».

Shundan so‘ng **“Oq kemani yasaymiz”** savol-javobi bo‘lib o‘tadi. Unda o‘qituvchi 2 tadan a‘zosi bo‘lgan 2 ta guruh tashkil etadi. Guruhlar o‘z savollarini raqib guruhga beradilar hamda kema qismlarini hosil qiladilar. **Reglament 5 minut.**



Shundan so‘ng qisqa tanaffus e‘lon qilinadi. Bundan foydalangan holda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi yon daftari uchun darslikda yo‘q ma‘lumotlar beriladi.

- 1958- yil “Jamila” qissasi yozildi.
- 1968- yil Chingiz Aytmatov Qirg‘iziston Xalq yozuvchisi bo‘ldi.
- 1970- yil “Oq kema” qissasi yozildi.
- 1980- yil “Asrga tatigulik kun” romani yozildi.
- 1990- yil “Kassandra tamg‘asi” romani yozildi.
- 1995- yilda Ch.Aytmatov Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti bo‘ldi.
- 1995- yil Ch.Aytmatov O‘zbekistonda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.
- 1998- yil Ch.Aytmatov O‘zbekistonda “Buyuk xizmatlari uchun” Ordeni bilan mukofotlandi.
- 1999- yil Qirg‘izistonda Chingiz Aytmatov nomidagi Xalqaro “Oltin medal” ta’sis etildi.

Shundan so‘ng o‘tilgan dars qisqacha xulosalab, yakunlanadi.

Yangi mavzu : “Oq kema” qissasi. Obrazlar talqini

Yangi mavzuni o‘tishdan oldin o‘quvchilar qissani qay darajada sinchkovlik bilan o‘qiganliklarini tekshirish maqsadida asar matni bo‘yicha zehn boshqotirmasi o‘tkaziladi.

U quyidagicha: “Adashtirdim, toping-chi?” zehn boshqotirmasi. Unda o‘quvchilar qissadan berilgan ma’lumotlar ichidan xato ma’lumotlarni ajrata olishlari lozim. Uni jadvalga joylashtiring. Reglament: 6 minut

Kunduzlari, odatda **shom** vaqtiga borib, bola serpoya shiroljinlar g‘uj bo‘lib o‘sgan tomonga jo‘nashni yaxshi ko‘rardi.

Bo‘key xolaning xushnud damlari kamdan kam bo‘lardi. Ko‘pincha g‘amgin va tajang yurar, **eriga** e‘tibor ham qilmasdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o‘rmonlarda **ona** bug‘ularni ovlashga tushib ketdi.

- E, bo‘tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: **ochko‘zlik** takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug‘diradi.

Bola bir kun **adirdan** turib ko‘m-ko‘k Issiqko‘lda oq kemani birinchi marta ko‘rib qolganida...

...O‘rozqul molxona orqasida mast-alast holda qaysarlik bilan Shoxdor ona bug‘u **tanasini** tilkalashda davom etardi.

Boshqotirmaning to‘g‘ri varianti

Kunduzlari, odatda **tush** vaqtiga borib, bola serpoya shiroljinlar g‘uj bo‘lib o‘sgan tomonga jo‘nashni yaxshi ko‘rardi.

Bo‘key xolaning xushnud damlari kamdan kam bo‘lardi. Ko‘pincha g‘amgin va tajang yurar, **jiyaniga** e‘tibor ham qilmasdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o‘rmonlarda **oq** bug‘ularni ovlashga tushib ketdi.

- E, bo‘tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: **boylik takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug‘diradi.**

Bola bir kun **Qorovultog‘**dan turib ko‘m-ko‘k Issiqko‘lda oq kemani birinchi marta ko‘rib qolganida...

...O‘rozqul molxona orqasida mast-alast holda qaysarlik bilan Shoxdor ona bug‘u **kallasini** tilkalashda davom etardi.

Noto‘g‘risi	To‘g‘risi	Noto‘g‘risi	To‘g‘risi
shom vaqtiga...	tush vaqtiga	Adirdan turib...	Qorovultog‘ dan turib...
Eriga e‘tibor ber...	Jiyaniga e‘tibor ber...	Ochko‘zlik takabburlikni...	Boylik takabburlikni...
Ona bug‘ularni...	Oq bug‘ularni...	Ona bug‘u tanasi ni...	Ona bug‘u kallasini ...

Shundan so‘ng esa qissa tahliliga e‘tibor qaratiladi. Unda o‘quvchilar asardagi obrazlar xususida so‘z yuritadilar.

O‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlanadigan muammoli vaziyatlarga namunalar:

1. “Oq kema” qissasi nima haqida? *(o‘qituvchi doira va strelkalardan foydalanib, o‘quvchilar fikrlarini doskada asarning qisqa sxemasini chizib boradi).*

2. «Oq kema» qissasi boshlanishida bolaning ikki ertagi bo'lgani haqida gap boradi. Siz shu ertaklarning qaysilar ekanligini aniqlay oldingizmi?
3. Nega bolaning ismi yashirin?
4. **Mo'min cholni nega yozuvchi “kamdan-kam uchraydigan baxtli odam” deya tasvirlaydi?** Bolaning bobosi Mo'min chol tabiati haqida nima deya olasiz? Uni nega hurmat qilishmaydi, u bilan nima uchun hisoblashishmaydi?
5. Bolaning tengdoshlarsiz, yolg'iz ekanligi sababini tushuntiring.
6. Boshqalardan yashirincha yig'laganda pana qiladigan shiroljin o'simligiga bolaning mehri nega tushgan deb o'ylaysiz? Qissa qahramoni nega yashirincha yig'laydi deb o'ylaysiz, odatda, bolalar yig'lashdan uyalishmaydi-ku?
7. Bolaning katta odamlar o'rtasida adolat, ezgulik, olijanoblik yo'qligi borasida qat'iy xulosaga kelishiga qaysi voqea turtki bo'ldi deb o'ylaysiz?
8. Bola-Mo'min chol-Bug'u-Baliq; O'rozqul-Seydahmad-Bo'key xola obrazlaridagi mushtaraklik nimalarda ko'rinadi?
9. Tabiat va odamlar tasvirida qanday yangilik bor? Bola nom bergan o't va toshlar bilan asar qahramonlari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
10. “Shum bola” bilan qiyoslang: tabiati, davri, odamlari, bola...

Shundan so'ng asar bo'yicha muammoli vaziyat o'rtaga tashlanadi:

XULOSALASH
UCHUN
MUAMMOLI
VAZIYAT

Asarning badiiyat va sujet chizig'ini
o'zgartirib yuboradigan o'rinlarni ayta
olasizmi?

O'quvchilar javobi tinglangach, o'qituvchi o'z xulosasini aytib, darsga faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi.

Uy ishi: “Oq kema” qissasidan so'ng mavzusida insho yozib kelish.

Xayrlashiladi.

2.1. “Asrga tatigulik kun” asarini maktab darsliklarida o‘rganish

Yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani jahon miqyosidagi shuhratiga yangi shuhrat qo‘shdi. “Asrga tatigulik kun” romani bilan adib romanchilik pallasiga qadam tashladi. Asar o‘zbek tiliga adabiyotshunos olim Asil Rashidov tomonidan mohirlik bilan tarjima qilingan. Bu o‘rinda Chingiz Aytmatovning so‘zlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Menga ixlos qilib, kitoblarimni o‘zbek tiliga tarjima qilgan do‘stlarimga, ayniqsa, adabiyotshunos, tarjimon Asil Rashidovga tashakkur aytmoqchiman. Chunki mening “Oq kema”, “Jamila”, “Alvido, Gulsari!” kabi bir qancha povestlarimni Asiljon o‘zbekchaga xuddi men qirgiz tilida yozganday jarangli tarjima qila oldi. Mana shuning o‘zi ham do‘stlikning kuch-qudratidir”¹⁰. Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov o‘zbek xalqining tom ma’nodagi chin do‘sti edi. Adibning ushbu romanida esa do‘stlikning haqiqiy ifodasi sifatida O‘zbekistonning bir qancha joy nomlarining tilga olinishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Asil Rashidov roman to‘g‘risida: “Alvido, Gulsari!” va “Oq kema” qissalarini qamrab olgan muhim hayotiy materiallarning ko‘lami va ularning badiiy yuksak darajada tasvirlab berilishi jihatidan roman janriga kiritish mumkin edi, biroq yozuvchi hali bunga o‘zini tayyor deb bilmadi, ijodning murakkab va yuksak cho‘qqilarini egallashda davom etdi. “Asrni qaritgan kun”(Bo‘ronli bekat) romani orqali esa ana shunday yuksaklikka ko‘tarila oldi”¹¹, deb yozadi.

“Asrga tatigulik kun” serqatlam, tadqiqotchilar qayd etganidek, intellectual-parabolik romandir. Asarning bunday baholanishiga sabab unda turli uslubiy-struktur qatlamlar mavjudligi, real hayot tasviri mif-afsonalar bilan qorishib ketganiyu turli jonivorlar roman sahnida harakat qilib, mustaqil nuqtai nazarga ega bo‘lishi va mazkur nuqtai nazarlarning asar vujudida salmoqli o‘rin tutishidir deyish mumkin¹². Garchi roman voqealari atigi yetti oiladan iborat kichik temir

¹⁰ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011, 244- bet.

¹¹ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011, 167-168- betlar.

¹² Suvon Meli. “Asrga tatigulik kun ”: roman badiiy strukturasiining ayrim xossalari // “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2010- yil, 2- son, 4-bet.

yo‘l bekatida bir kunda bo‘lib o‘tsa-da, unda yetti iqlimni qamrab olgan muammo, ming yillarga tatigulik xalq dardi, tashvishi ifodalanadi.

Chingiz Aytmatov – xarakter yaratishga usta yozuvchi. Chunki u hayotni sezgirlik bilan kuzatadi. Insoniy fazilatlarni yorqin chizib berishga harakat qiladigan hayotiy konfliktlarni tanlaydi.

Ayrim shaxslarning ziddiyatli ruhiy kechinmalari, ularning ijtimoiy ong shakllari bilan, ayni vaqtda, ro‘y berayotgan siyosiy voqealar bilan chambarchas o‘zaro aloqasi – har bir badiiy asarning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Chingiz Aytmatov asarlari dolzarbligi, o‘tkir siyosiy muammolarni ko‘tarib chiqqanligi bilan xarakterlidir. Tasvirlanayotgan voqealarning markazida tarixiy hodisalarning o‘zi emas, balki shu hodisalar ta’sirida inson ichki dunyosining tarkib topishi haqida so‘z boradi¹³.

Yozuvchi boshqa asarlarida bo‘lgani kabi bu asarida ham bosh qahramonni xalq orasidagi oddiy, halol, mehnatkash odamlar orasidan tanladi. Adib qahramonlari portretini yaratar ekan, u odatiy kasb egalarini emas, oddiygina temir yo‘l ishchisi yoki qo‘riqxon qorovuli kabi personajlarni qahramon sifatida tanlaydi.

Romanda talqin etilgan barcha muammolar, xususan, tarixning murakkab hodisalari, asrimizning ulkan haqiqati, butun bashariyatni hayajonlantirayotgan, tashvishga solayotgan muammolar asarning ikkinchi yetakchi qahramoni, oddiy mehnatkash inson – Edigey taqdiri orqali badiiy inkishof etilgan¹⁴. Asar shu temir yo‘l bekatida Edegey bilan yelkama-yelka xizmat qilib, turmushning issiq-sovug‘ini birga totib, qayg‘u-quvonchlarini birga baham ko‘rgan, Sario‘zak cho‘lining kekxa xizmatchisi Kazangapning dafn qilish voqeasi bilan boshlanadi. Kazangapni vasiyatini amalga oshirish uchun Edigey boshidan o‘tkazgan bir kunlik o‘sha mudhish voqealar zahirida bir asrlik tarixni yodiga oladi. Shuning uchun asar nomi “Asrga tatigulik kun” deb atalgan. Kazangapning vasiyatiga

¹³ Qorayev Suyun. Insonparvar adib // “Ma’rifat” gazetasi, 2010- yil, dekabr.

¹⁴ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011, 173- bet.

ko‘ra uning jasadini ajdodlari hoki yotgan muqaddas Nayman ona qabristoniga dafn etish kerak edi.

Chingiz Aytmatov inson zoti sharafigini, nainki inson, umuman tirik mavjudotni juda xilma-xil sharoitlarda, turli vaziyatlarda, ziddiyatli tang holatlarda, mas’ud damlarda, fojia ichida olib qaraydi. Insonni tavallud topishi, o‘sib-unishi, kamoloti, parvozi, inqirozi, yuztuban ketishi onlarida, chuqur ruhiy iztiroblar ichida ko‘rar ekan, shunisi tahsinga sazovorki, har qanday sharoitda – hatto yorug‘ dunyodan abadiy ko‘z yumganida ham – inson ulug‘ va mukarram bo‘lib qolishga arziydigan zot, deb talqin qiladi yozuvchi¹⁵.

Muallif boshqa asarlarida bo‘lgani kabi “Asrga tatigulik kun” romanida ham rivoyatlarga tayanadi. Bunda romandagi rivoyatlar zamonaviylikni tushunish uchun bir vosita vazifasini o‘taydi. Asardagi rivoyatlarning joylashtira bilish mahorati, voqealar dramatizmining tez-tez almashinib turishi, kompozitsion markazlarning ko‘p qirraliligi roman strukturasining o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuvchi belgilardan biridir. Shirali, favqulodda o‘ziga xos maroqli va jozibador usul-uslub: o‘tmish manzaralari, xalq donishmandligi, hikmatlar bilan omuxta qilingan real voqelik lavhalari, o‘zicha olganda aqlni lol qilishdan yiroq bo‘lgan odmi jo‘n turmush tarzining tafsilotlari bilan “to‘ldirilgan”, “bezatilgan”, “tasdiqlangan” rivoyatlar muallifning hikoya qilish samimiyatini ta’minlaydi. Natijada har qanday rivoyatning rivoyatdan boshqa narsa emasligini ro‘y-rost, ko‘rib-bilib, anglab turgan kitobxon muallifga o‘z ixtiyori bilan, ro‘y-rost, ko‘ra-bila ishonaveradi¹⁶.

Roman kompozitsiyasining originalligi avvalo, muallif xalq og‘zaki ijodining ikki rivoyatidan foydalanib, asar mazmunini yanada yorqinroq ifodalagani bilan xarakterlanadi. Bu ikki rivoyat ikki turli g‘oyani, o‘ziga xos turli falsafiy-estetik maqsad va muammolarni uyg‘unlashtirishi orqali o‘zgacha bir badiiylilikni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. “Asrga tatigulik kun” romanining

¹⁵ O‘sha asar, 549-bet.

¹⁶ Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent, 1989, 549-bet.

badiiy asosi hisoblangan uslubiy-shakliy komponentlarni tashkil etuvchi rivoyatlarning birinchisi – “Nayman ona va uning manqurt o‘g‘li” haqidagi rivoyatdir. Uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealar haqida hikoya qiluvchi rivoyatlarda aniq, konkret obrazlarni uchratmaymiz, hatto ushbu rivoyatda ham manqurt obrazidagi yigit timsolida tarixiy konkretlikdan ko‘ra badiiy shartlilik, ramziylik ustunlik qiladi. Har bir rivoyat shunchaki badiiy bezak sifatida keltirilmasdan, asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi poetik vositaga aylantirilgan. Muallifning badiiy niyati rivoyatlardan kelib chiqadigan xulosalarda namoyon bo‘ladi. Rivoyatlarda muallif pozitsiyasi, uning g‘oyaviy-estetik qarashlari o‘ziga xos didaktik formada mujassamlashgan. Yozuvchi o‘sha davr kishilari taqdiriga mos falsafiy-estetik g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan qadimiy rivoyatlarni topib, o‘tmish bilan bugunni yagona matn doirasida uyg‘unlashtiradi. Rivoyatlardagi har bir badiiy obraz, fikr, g‘oya va poetik detal zamondoshlarimiz xarakterini ochishga, psixologik dramatismni kuchaytirishga xizmat qiladi. Har bir rivoyat o‘zidan keyin yoki oldin keladigan voqealar rivojiga singib ketganday, rivoyatda hikoya qilingan o‘tmish voqealarining bayoni o‘sha davr odamlarining real hayoti, o‘y-tashvishlarida davom ettirilganday tuyuladi. Rivoyat mazmuni konkretlashib, mohiyati chuqurlashadi, ramziy to‘lqinlar real ijtimoiy voqea-hodisalar fonida davrning dolzarb muammolariga, rivoyatdagi hayoliy-allegorik obrazlar esa tom ma’nodagi badiiy tiplarga aylanadi.

Ushbu rivoyat asarning muayyan sujet tarmog‘iga emas, balki butun roman kompozitsion qurilishiga, uning g‘oyaviy-estetik yo‘nalishiga aloqadordir.

“Asrga tatigulik kun” romani “Oq kema” qissasi singari na ertak va na ramziy asar bo‘libgina qolmay, balki yuksak mahorat bilan ertak va ramziylik ohanglariga chulg‘ab berilgan chinakam real haqiqatdir¹⁷.

Rivoyatda asosiy masala manqurtlik voqeasi bo‘lib, yozuvchi shuningdek, onaning farzandiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini, xotiraning inson hayotidagi

¹⁷ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011, 188-bet.

qudratini, vatanga, ota-onaga, el-ulusga sadoqatini keng misollar yordamida yoritishga harakat qiladi.

Romanda keltirilgan Nayman ona qabristoni haqidagi rivoyat toponimik rivoyatlar turkumiga mansub bo'lib, bu qabristonda qozoq ajdodining validai muhtaramasi Nayman ona dafn etilgan. Biz rivoyatni toponimik jihatdan tahlil qilsak, shu qabristonning kelib chiqish tarixi haqidagi g'oya kelib chiqadi. Rivoyat qanday turga mansubligidan yoki uni tasniflashdan qat'iy nazar uning zamirida qandaydir tarixiy haqiqat yotadi. Toponimik rivoyatlarning mavzu qatlamlari rang-barang bo'lib, bu tipga mansub folklor asarlarining rivoyat janri epik tizimida tutgan badiiy o'rnini belgilashda xalq og'zaki nasri asarlarining genezesi, asosiy sujet guruhlarining shakllanish jarayonini bevosita tarixiy voqelik talqinlari bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu rivoyatning bosh qahramoni Nayman ona o'gli Jo'lomon siymosida xalqining o'zligi va kelajagini saqlab qolish ilinjida manqurtlikka qarshi yakka o'zi isyon ko'tarib jon bergan onaizordir. Adib ushbu rivoyat orqali mehnatkash xalqning o'tmishda naqadar og'ir hayot kechirganligi Nayman ona va uning o'g'li manqurt - Jo'lomonlar epizodida g'oyatda hayajonli tasvirlagan. Rivoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: Qadim zamonlarda Sario'zakni bosib olgan jungjanglar asirga tushgan janchilarga nisbatan shafqatsizlik qilar ekanlar. Ular asirlarni sochini qirib tashlab boshiga tuya terisidan teriqalpoq tortib, qo'l-oyoqlarini bog'lab jazirama oftob tig'ida tashlab qo'yadilar. Quyoshning issig'ida teri torayib, o'sib boshlagan sochlarini qaytadan bosh terisiga qarab o'sishi natijasida asirlarni chidab bo'lmas og'riqqa solar edi. Tutqunlar bu azobdan eshushidan butunlay ayrilib, ko'zlangan maqsadga – manqurtlarga aylantirilar edilar. Bu jazoga ayniqsa, yosh yigitlar duchor etilar edi. Natijada ular hech narsani – ota-onasini-yu, el-ulusini eslolmaydigan holga tushishardi.

Sario'zakning ana shunday manqurtga aylantirilgan yigitlaridan biri Nayman onaning o'g'li Jo'lomon Do'nanboyev bo'lgan. Nayman ona naymanliklarning yurtiga karvonda mol ortib kelgan savdogarlardan Sario'zak dashtida

jungjanglarning tuya podalarini boqib yurgan manqurt yigit haqidagi suhbatini eshitib qoladi va shu manqurt yigit o'g'li bo'lib chiqishi mumkinligini o'ylab uni qidirib yo'lga chiqadi. Eridan ayrilgan Nayman ona o'g'lidan ham judo bo'lishni istamas edi. Nayman ona o'sha manqurt o'g'lini topish ilinjida Sario'zakdek bepoyon cho'lga yakka o'zi Oqmoya nomli tuyasi bilan mushtdek yuragini dunyo qadar keng qilib yo'lga chiqadi. U uzoq yo'l bosib o'tib, Sario'zak cho'li tomon yetib keladi. Nayman ona ancha vaqt poylab yotib va nihoyat tuyalar podasiga duch keladi. Shu onda o'z o'g'lini tanigan onaning qiyofasini yozuvchi shunday tasvirlaydi: "Birdan ona ahvolni tushundi. Tushundiyu , deysinib qichqirgancha yig'lab yubordi. Alam va dahshatdan lablari dirillab, shuncha urinsa ham o'zini qo'lga ololmasdi. Yiqilib tushmaslik uchun loqayd o'g'lining yelkasiga yopishib olib, qachonlardan beri xavf solib turgan, endi esa uni bosib tushgan tog'day g'am yuki ostida ezilib faryod chekar, ko'zyoshlari selday oqardi. Ona bo'zlab yig'lar ekan, ko'z yoshlari orasidan, ho'l bo'lib chakkalariga yopishib qolgan burul soch tolalari orasidan, yuzlarini chang bilan bulagan qaltiroq barmoqlari orasidan farzandining tanish qiyofasiga boqar, uning o'ziga nigoh tashlashini orziqib kutar va meni tanib qolar, deb umid qilar edi. Axir, tuqqan onasini tanib olish qiyin emas-ku!"¹⁸. Nayman ona har qancha harakat qilmasin, unga hech narsani eslata olmaydi. U o'tmishini xotirlash u yoqda tursin, hatto o'zini qutqargani kelgan tuqqan onasini ham tanimaydi, na urug'ini, na otasining nomini eslaydi. Shunda Nayman onaning o'hu-fig'oni butun Sario'zak cho'lini larzaga soladi: "Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish ham mumkin, derdi ona o'z-o'zicha gapirib, biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o'ylab topdi ekan, bunga kimning qo'li bordi ekan?! Yo rabbiy, agar olamda bor bo'lsang, bandalaringa bu yovuzlikni qanday ravo ko'rding. Yer yuzida usiz ham yovuzlik kammidi?"¹⁹.

¹⁸ Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent, 1989, 118- bet.

¹⁹ Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent, 1989, 119-bet.

Ona o'g'lining xotirasini tiklash umidida u bilan suhbatlashadi. Ona manqurt o'g'liga qarab turib, quyosh, xudo va o'zi to'g'risida to'qigan mashhur marsiyasini aytdi. Shunda ona mashhur marsiyani boshladi, bilgan kishilar bu so'zlarni hozirga qadar eslab yurishadi:

Tulubin kelib iskagan,

Bo'tasi o'lgan bo'z moyaman...

Tarjimon bu marsiyani quyidagicha izohlaydi: "Tuyaning bolasi o'lganida, sut bermay qo'ymasin, deb bo'talog'ining terisiga somon tiqib, onasiga ko'rsatiladi. Shunda hayvonning mehri tovlanib yeliniga sut keladi"²⁰.

Shu mahal tuya mingan junganglardan biri yetib keladi. Bu yerga begona kishi kelganini payqagan jungjang onani ortidan quvlaydi, lekin Oqmoyaga yetish amri mahol edi. Shunda jungjanglar manqurt o'g'ilga u seni telpagingni olib, boshinga qaynoq suv solgani kelgan deb qo'rqitishadi. Uni qo'liga qurol berib agar yana o'sha ayol keladigan bo'lsa, uni otib o'ldirishni buyuradi. Mushfiq ona jungjanglarni ketishini poylab yana o'g'li tomon yo'l olganda manqurt o'g'il o'z onasini o'sha o'q bilan ko'ksiga tig' sanchadi. "Bu o'lim zarbasi edi. Nayman ona ikki bukildi va Oqmoyaning bo'yniga yopishgancha shilq etib tushdi. Lekin undan oldinroq boshidan oq ro'mol uchib ketib, havoda qushga aylanib chirqiray boshladi: "Kimning farzandisan, eslab ko'r! Oting nima? Otangning oti Do'nanboy! Do'nanboy! Do'nanboy!" deb sado chiqarar ekan"²¹. Asar so'nggida esa ana qush tasviriga monand oqquyruq kalxat personaji dafn marosimi tugallanishi arafasida paydo bo'ladi. Qush besaranjom odamlarning hatti-harakatini kuzatadi, ular haqida o'zicha fikr yuritadi. Obrazning botiniy ma'nosi Edigeyning ichki o'y-fikrlarida aniqlashadi: "Odam o'lgandan so'ng ruhi nimagadir aylanishi rost bo'lsa, unda men chumoliga emas, balki oqquyruq kalxatga aylana qolayin. Negaki, huv osmondagi kalxatdek Sario'zak uzra qanot qoqib parvoz qilib yuksaklardan qadrdon zaminimizga suqlanib qarayin.

²⁰ Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent, 1989, 120-bet.

²¹ O'sha asar, 124-bet.

Vassalom”²². Ushbu rivoyat yakunida esa onaning manqurt o‘g‘il tomonidan o‘ldirilgan holatida ham ushbu tasvirni uchratish mumkin, ya’ni onaning tanidagi ruh ham shu qushga o‘tadi. Yozuvchi bu rivoyatda o‘z-o‘zini anglash, o‘zligini tushunish singari muammolarni ilgari suradi.

Manqurt o‘zi kim? Manqurtlik o‘zi nima? Asarda muallif manqurt atamasini asardagi obrazlar orqali ifodalashga harakat qiladi. Hayvonlar tangri tomonidan yaratilgan tabiiy hilqat, manqurtlar esa insonlar tomonidan hayvonga aylantirilgan, ya’ni xotirasidan mahrum etilgan, na ota-onani, na el-ulusni, o‘z xo‘jayinidan boshqa hech kimni tan olmaydigan mahluqot hisoblanadi. Hozirgi kunda “manqurt” so‘zi ko‘chma ma’noda o‘z yurti, o‘z tarixi, o‘z naslini unutgan kishiga nisbatan aytiladi.

Manqurt so‘zi, atamasi xususida muallifning o‘zi Muxtor Shoxonov bilan qilgan suhbatida quyidagilarni bayon etadi: “Bundan o‘n asr muqaddam kuylangan va o‘shandan buyon qahramonlik, vatanparvarlik qomusi bo‘lib kelayotgan “Manas” eposida ilk bora manqurtlik to‘g‘risida guvohlik berilgan. Eposda shunday parcha bor: kichkintoy Manas asov kuchga ega, jangari bo‘ladi. Bundan tashvishga tushib qolgan mahalliy hokimlar pinhona til biriktiradilar. Ya’ni kelajakda Manas yo‘lboshchi bo‘lmasligi uchun uni yoshligida manqurtga aylantirib qo‘ymoqchi bo‘ladilar:

Bolani asirga olaylik,
Boshiga xom terini yopishtiraylik.
So‘ng, yurtimizga eltib qurg‘urni
Olti aymoq qalmiq bir bo‘lib,
Bog‘lab adabini beraylik!”²³

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “Manas” xalq eposida ilk bora keltirilgan manqurtlik voqeasi yozuvchi asarlari tarkibidagi rivoyatlarning ilk ildizi hisoblanadi. Chingiz Aytmatov esa rivoyatdagi voqeani o‘sha davrdagi

²² O‘sha asar, 274-bet.

²³ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent, 2011, 186-bet.

“zamonaviy manqurtlik” muammosi bilan bog‘laydi. O‘z davrining manqurtlari deb e’tirof etilgan bu kimsalar faqat xo‘jayinga yoqish ilinjida uning hamma aytganlarini so‘zsiz ado etadigan, o‘zining mansabi, vakolati deb odamgarchilikdan yiroqlashgan, xalq urf-odatlarini mensimaydiganlar turiga kiradi. Muallif Qozongapning o‘g‘li Sobitjon va kosmodromda xizmat qilgan qozoq leytenant Tansiqboyevni ham o‘sha davr manqurtlari deb ta’riflaydi. Edigey ham xuddi Nayman ona singari najotsizlikdan o‘hu-fig‘on qilgisi keladi: “Oting nima? Otangni oti nima? Otangni oti Kazangap, Kazangap, Kazangap...” deb Sobitjonga o‘z o‘tmishini eslatishga, uni ko‘zini ochib, o‘zligiga qaytarishga harakat qiladi. Lekin bularning barchasi Edigey orzu qilgandek bo‘lib chiqmaydi. Yozuvchi Edigey Bo‘ronning Sobitjonga nafratini shunday ifodalaydi: “Edigey Bo‘ron o‘kinardi - u bilan gaplashgani uchun qattiq o‘kinardi – so‘zlarini yelga sovurdi. Maslahatlashishga va yordam so‘rashga arziydigan odammi Sobitjon? Savodli, ma’lumotli, o‘ziga o‘xshaganlar bilan oson til topishadi, deb umidvor bo‘lgandi-da. Turli kurslarda, institutlarda ta’lim olgan bo‘lsa nima qilibdi? Ehtimol, uni hozir qanday bo‘lsa, shunday bo‘lishi uchun o‘qitishgandir, Ehtimol, qaylardadir Sobitjonni boshqa birov emas, aynan Sobitjon bo‘lib yetishishi uchun ko‘p mehnat sarf qilgan iblisdek o‘tkir aql sohibi bordir”²⁴. Ko‘rinib turganidek, Edigey Sobitjonni Sobitjon bo‘lib shakllanishida otasi Kazangapni emas, balki internatda uni tunu-kun o‘z o‘tmishiga, o‘z qadriyatlariga, ota-onasiga xullas barcha-barchaga shafqatsiz ruhda tarbiyalab, faqat kommunistik mafkuraga xizmat qilish uchun yo‘naltirilgan “radio orqali boshqariladigan odam” qiyofasida tarbiyalagan jamiyat tuzumini ayblaydi.

Manqurtlar haqidagi rivoyat “Asrga tatigulik kun” romanining zamonaviy ahamiyatini belgilovchi eng muhim qism hisoblanadi. Yozuvchi qo‘llagan ushbu termin hozirgi davrga badiiy adabiyotda ham, publitsistikada ham ommalashib ketgan atama hisoblanadi.

²⁴ O‘sha asar, 278-bet.

Har bir millat o'ziga xos qadriyatlariga, an'alariga, urf-odat va marosimlariga ega. Ma'lumki, yaratilajak asarning milliy zaminda, milliy ruhda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Zero har qanday san'at asari o'zi mansub xalqning boy ma'naviy madaniyati, qadriyatlarining ajralmas mulkiga aylanadi. Unga shu xalqning dunyoqarashi, intilishi-yu orzu armonlari jo bo'lishi, har bir detalda uning ishoralarini aks ettira olishi esa san'atkordan alohida mahoratni talab etadi.

San'atda, adabiyotda milliylikni keng ma'noda tushunish mumkin. Gap shundaki, tasvirlanayotgan voqealar va ularga munosabatda milliy ruh sezilishi kerak. Lekin yozuvchining asar yozishdan maqsadini belgilovchi g'oya, fikr barcha millatlar uchun ham daxldor bo'lishi kerak. Ya'ni asarning milliy zaminda umuminsoniy muammolarga qaratilishi undagi zaruriyat darajasini kengaytiradi²⁵. Rivoyatda manqurtlik voqeasi bilan bir qatorda ana shu manqurtga aylantirilgan yigitning ajdodi bo'lmish nayman urug'ining qadriyatlari o'sha millatning umuminsoniy mazmunini o'zida aks ettirgan. Yozuvchi adabiy asar yaratarkan, avvalo u qanday mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha xalq urf-odatlarini, an'alarini, insoniylik qadr-qimmatlarini asarga singdirishga va asarning jozibadorligini oshirishga harakat qiladi.

Nayman urug'ining mergan yigiti Jo'lomon ko'pchilik qatori o'z el-ulusini, vatan tuprog'ini himoya qilish uchun jangga o'tlanadi. Ana shu junjang qabilasi bilan bo'lgan shafqatsiz jangda Nayman onaning o'gli dom-daraksiz yo'qoladi. Uni tirigi ham, o'ligi ham topilmaydi. "Jangchining jasadini izlab naymanlar necha kunlab dala yo'llarini kezib chiqdilar. Biroq na marhumning jasadini, na olib qochgan otini, na tushirib qoldirgan qurol-yarog'ini, na boshqa biron belgi alomatni topa oldilar"²⁶. Bu qabilada inson qadr-qimmati qanchalik aziz ekanligini yozuvchi shunday ta'riflaydi: "Bu elat odatida halok bo'lganlarni jang maydonida qoldirib ketish nomus sanaladi, qarindosh-urug'lari jangchining

²⁵ Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: "O'qituvchi", 2011, 157-bet.

²⁶ O'sha asar, 112-bet.

jasadini olib kelishlari lozim”²⁷. Yoki “yosh jangchining Sario‘zak cho‘lida dafn etilmay qolib ketgan o‘g‘lining dardu hasratiga chidolmagan xotin-xalajlar erlari va og‘a-inilari sha’niga ta’na toshlarini yog‘diradilar: - Uning ko‘zlarini quzg‘unlar cho‘qidi, shoqollar go‘shtini burdalab ketdi, endi sizlar qaysi yuz bilan el orasida bosh ko‘tarib yurasizlar!”²⁸. Mana shu odatlarning o‘zi ham o‘sha xalq qadriyatlarining qanchalik darajada oliximmat ekanligini ko‘rsatadi. Asarda ana shu mushfiq Nayman ona siymosida onaizorning farzandiga bo‘lgan cheksiz muhabbati, ummon singari bepoyon irodasi qalamga olinadi.

Shuningdek, Nayman ona o‘g‘lini qidirib yo‘lga otlanganini hech kimga sezdirmay faqatgina qaynsinglisiga qarindosh urug‘larinikiga mehmonga ketayotganligini, undan so‘ng qipchoqlar manziliga hazrati Yassaviy maqbarasini ziyorat qilib kelishini aytadi. Bu bilan yozuvchi o‘sha xalq uchun hazrati Yassaviy ruhiga e’tiqod, ya’ni, buyuk ajdodlar ruhini ziyorat qilish shu xalqning milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Yoki o‘g‘lini topgandan so‘ng, uni manqurtga aylantirilganini ko‘rgan onaning ahvolini tasavvur qiling. Shunday vaziyatda uning kuylagan mashhur marsiyasi butun Sario‘zak cho‘lini larzaga soladi. Biroq bu nola faryod manqurt o‘g‘ilning to‘pig‘iga ham chiqmaydi. Ona har qancha harakat qilmasin o‘zligini unutgan o‘g‘ilga o‘tmishini eslata olmaydi va uning tirik murdaga aylangan, tosh metin singari qattiq qalbini erita olmaydi. Faqatgina onaning o‘g‘liga aytgan allasidan so‘ng manqurt o‘g‘ilning yuzida iliqlik nurlari paydo bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, yozuvchi o‘z o‘rnida alla, marsiya, maqol singari xalq og‘zaki ijodining bir qancha turlaridan unumli foydalangan.

Adib manqurt haqidagi rivoyat tasviri orqali xalq tarixidan, urf-odatlaridan uzilishning dahshatini butun fojeasi bilan ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi.

Biz bu mashhur adibning ijodiy tadrijini ko‘zdan kechirar ekanmiz, yozuvchi asardan-asarga ulg‘ayib, barkamollik, ko‘lamdorlik kasb eta borganining

²⁷ O‘sha asar, 112-bet.

²⁸ O‘sha asar, 112-113- betlar.

guvohi bo‘lamiz. Kamdan-kam adiblarga nasib etadigan tahliliy tafakkur sohibi hisoblanuvchi Aytmatov umuminsoniy muammolar ustida jiddiy bosh qotirgani bilan o‘z yo‘nalishiga egadir. Aytmatovning “hayotimizdagi g‘oyat pinhona o‘ta murakkab muammolarni ham ilg‘ab olish va nekbinlik bilan his qila bilish” qobiliyati, ayniqsa, qayta-qayta e’tirof etiladi. Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov romannavis sifatida yangicha mushohada egasi bo‘lib, Zamon, Inson va Tabiatning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi muammosiga yangicha yondoshgan kashshof adiblardan biri bo‘ldi²⁹.

Chingiz Aytmatov o‘z asarlarida qo‘llagan ramziy rivoyatlari, ramziy obrazlari orqali dunyo ahliga ma’naviyat nurini ulasha bilgan yozuvchidir. Asarda falsafiy ma’noga yo‘g‘rilgan obrazlar, manzaralar, voqea-hodisalar g‘oyat ta’sirli, kuchli ichki hayajon bilan ifoda etiladi. U romandagi rivoyatlari orqali insonlarni ezgulikka, yuksak sadoqatga, mehr-muhabbatga, moziy va zamonga ijobiy munosabatda bo‘lishga undaydi. Asar shuning uchun ham kitobxon tasavvurida uzoq saqlanib qoladi.

Aytmatov uslubiga xos rivoyat va afsonalardan dardli, insonni o‘ylantiruvchi, ogohlantiruvchi, o‘zini tanishga undovchi xulosalar chiqarish mahorati mazkur asarda yana bir yuksak maqomga ko‘tariladi. Ayniqsa, jungjanglar, manqurtlik dahshati haqidagi afsona romanning javhari – kalitidir. Yozuvchi real, hayotiy voqealar tarkibiga rivoyat, afsonalarni shunday olib kirib, shunday bir jozib uslubda, ta’sirchan tasvirlaydiki, bu voqealar rivoyat, ertaknamo ekanini bila turib, uning tabiiy shavqiga beixtiyor sho‘ng‘ib ketasiz. So‘ngsiz savollar vartasi sizni o‘z domiga g‘arq etadi³⁰.

Chingiz Aytmatov ijodi shaxsda yuksak ma’naviy sifatlar shakllantirishda katta samaralar bera oladigan asarlarga boy. Teran falsafiy qarashlar aks etgan asarlarida ham Aytmatov o‘smirlar shuuridan mustahkam o‘rin oladigan shunday lavhalarni chizadiki, ular bilan tanishish o‘quvchilar shaxsiyati shakllanishiga

²⁹ Pariza Mirzaahmedova. Davrimiz allomasi // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2004- yil, mart.

³⁰ G‘aniyev Ilhom, Ibragimov Rustam. Chingiz Aytmatov va XXI asr. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013, 198-199-betlar.

kuchli ta'sir ko'rsatadi. "Qiyomat" romani tarkibidagi "Oltovlon va yettinchi" afsonasi maktabda qator yillar davomida o'rganib kelindi. U o'quvchilarga hayotning murakkab, odamlararo munosabatlarning o'ta chigal ekanini tuydirishi jihatidan katta pedagogik ahamiyatga egadir. Ushbu afsona matnini o'qib chiqish uchun 26-28 daqiqa vaqt kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqib, birinchi soatda afsona o'qib berilib, keyingi soatlarda tahlilga tortilgani ma'qul.

Afsonada sho'ro tuzumining o'rnatilishiga doir qonli voqyealar aks ettirilgan. Unda bir millat o'g'lonlarini bir-biriga qarshi qurol ko'tarishga undagan, ularni o'zaro qattol dushmanlarga aylantirgani sotsialistik tuzumning mudhish oqibatlari ko'rsatilgan. Tarix darslarida ham o'quvchilarga xalqning kechagi kuni haqida ma'lum tasavvur berilgan. Lekin tarixda odamlar taqdiri va ko'ngliga emas, balki voqyea va sanalarga ko'proq e'tibor qaratilgani uchun o'smirlar hali bir jamiyatni turli sinflarga bo'lib yuborgan tuzumning yirtqich qiyofasini aniq tasavvur eta olishmaydi. Sotsialistik tartiblar o'rnatilayotgan davrda bizning yurtimizda ham afsonada tasvirlanganidek, birodarkushliklar bo'lgani, millat erki va ozodligi uchun kurashganlar "bosmachi" tamg'asini olib, o'z yurtini kelgindilarga bo'ysundirganlar esa, qahramon atalganini bildirib qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi.

Asar tahlili matn yuzasidan savol-topshiriqlar berish orqali amalga oshiriladi. Tahlil jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni har bir savol ustida o'ylab javob qilishga yo'naltirishi, o'z haqiqatlarini bolalarga tayyor holda bermagani ma'qul. Adabiyot o'qitish uchun matn zamiridagi badiiy haqiqatlarni o'quvchilarning o'zi kashf qilishi muhimdir.

Har bir o'qituvchi o'zining didaktik niyati va o'quvchilarining intellektual-ruhiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, adabiyot darslari oldiga o'zicha maqsad qo'yadi. O'qituvchi o'z maqsadini o'quvchilarniki bilan uyg'unlashtira bilgandagina mashg'ulot o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir qiladigan harakat energiyasiga aylanadi. Asar yuzasidan muallim tuzgan savol-topshiriqlarga javob berish uchun o'smir matnga qayta-qayta murojaat qilishi, o'qigan-bilganlariga

tayanib, fikr bildirishi muhim. O'qituvchi mana shu jarayonning boshida turishi, ammo o'z qarashlarini tarbiyalanuvchilariga tiqishtirmasligi kerak.

O'quvchilar e'tibori asardagi: "Bunday sharoitda asosiy qonun bitta - agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar. Ammo shafqatsizlikka javoban shafqatsizlik yuzaga chiqadi - bu ham qadimdan qolgan qonun" tasviriga tortiladi. Adabiy ta'limda o'quvchilarning o'zlari o'qiyotgan matndagi muhim tasvirni nomuhimidan farqlay olishlariga alohida diqqat qaratish zarur. Agar muayyan asardagi hamma tasvir bir xilda qabul etilaversa, o'quvchiga badiiy asardan hech narsa yuqmaydi. Chunki quchoqqa sig'maydigan narsani quchish mumkin emas. Matndagi "Bunday sharoit" ifodasida urush, dushmanlik, qon to'kish, "Shafqatsizlikka javoban shafqatsizlik yuzaga chiqadi",- degan fikr zahirida yomonlik yomonlikni chaqirishi ko'zda tutilayotganini bolalar anglab yetishlari kerak. Mehr mehr uyg'otgani, muhabbat muhabbat chaqirganidek, shafqatizlik shafqatizlikni yuzaga keltiradi. Asarda gruzin millatining bir qatlami tomonidan qilingan shafqatizlik boshqalarida ham qahr paydo qilgani haqqoniy tasvirlangan.

Matnni tahlil etish asar qahramonlarini yaqindan tanish demakdir. Asarga chuqurroq kirib borilgani sari undagi obrazlarning mohiyati ochilib boraveradi. Asardagi: "Chekist mingan otning esa ayili bo'shab ketadi. U butalar panasida otdan tushadi" tasviri orqali o'quvchilar kurashchilar safiga kirib olgan chekist Sandro otining egari bo'shab ketganligi bahonasida og'och panasida qolib, sheriklarini o'qqa ro'para qilganini anglab yetishadi. Dunyo juda chigal, odamlar undanda murakkab, ammo o'quvchilar hali bu chigalliklarga duch kelishmagan. Asar sahifasida bo'lsada shunday holat bilan yuzma-yuz kelar ekan, o'smir o'z nuqtai nazarini belgilashi kerak bo'ladi. Sandro - oddiy insoniy mantiqqa ko'ra xiyonatkor kimsa, sho'ro mezonlariga ko'ra esa qahramon. O'quvchi ilk bor murakkab axloqiy dilemma oldida qolib, odamga baho berish uchun chinakamiga o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi.

O'quvchilar asardagi: "Shom tushganda oltovlon va yettinchi bir joyga to'plandilar" ifodasining aynan shu shaklda berilganligi sababini aniqlashlari

kerak. Yetti kishidan iborat to‘da a‘zolarining hammasi bir millat bolalari. Go‘yo bir maqsad yo‘lida yurishibdi. Har holda qo‘rdagi olti kishi shunday deb o‘ylaydi. O‘quvchilar ularning oltovi chindan ham bitta maqsad yo‘lidagi kishilar bo‘lib, yettinchisining niyati tamomila boshqa ekaniga, oltovlon bilan Sandroning qoni, tili bir bo‘lsada, dili, ruhi va maqsadi bir emasligiga e‘tibor qaratsa, uning begona, “yettinchi” ekani boisini anglaydilar. Bolalarning muallif ochiq aytmay ishora orqali ifodalagan nuqtai nazarini sezishi adabiyot o‘qituvchisi uchun katta yutuqdir.

Bolalarga Guram Jo‘xadze tabiatiga xos xususiyatlar haqida ham chuqurroq fikr yuritish imkoni berilishi zarur. Guramning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, o‘yu iztiroblari tasviriga tayanib, uning ma‘naviy olami borasida fikr yuritish to‘g‘ri bo‘ladi. Sho‘rolar tuzumi zulmu zo‘ravonlik bilan o‘rnatila boshlaganda barcha xalqlarning millatparvar, erksevar vakillari mustaqillik yo‘lida bosh ko‘targanlar. Afsona qahramoni Jo‘xadze yurti, millati ozodligini saqlab qolish, o‘z vatanida o‘z qonunlari asosida yashash yo‘lida kurashgan shunday o‘g‘lonlar timsoli. Yurt tuprog‘ining o‘zgalar tomonidan toptalishini istamagan Guram millat erki, vatan mustaqilligi uchun jangga kirishadi. Sandroning sotqinligi tufayli qo‘rdagi yigitlar ayovsiz qirildi. Shu qirg‘indan zo‘rg‘a omon qolgan kishilar to‘g‘risida asardagi: “Besh kishi shu zahoti o‘likday dong qotib uxlab qoladi. Ikki kishining esa ko‘zlariga uyqu kelmaydi” tasviriga bolalar e‘tibori tortilishi kerak. Jo‘xadze mag‘lubiyat sabablarini o‘ylayotgani, shuncha urinishlarning samarasiz ketganligining tagiga yetolmagani, vatanni tark etish iztirobini tortayotgani uchun uxlolmaydi. Sandro esa chekistlar topshirig‘ini bajarishni o‘ylayverganidan ko‘zidan uyqu qochadi. Ularning biri - millat erki va ozodligi yo‘lida jonini fido qilishga tayyor, berilgan qurbonlar, to‘kilgan qonlar, toptalgan tuproq uchun o‘zini javobgar deb his qilayotgan el farzandi. Ikkinchisi - vatan va xalq erkini o‘zgalar qo‘liga topshirgan, berilgan buyruqni ko‘r-ko‘rona, ammo qoyillatib bajaradigan kimsa. Birinchisi yurtning ertasini o‘ylab qiynaladi. Ikkinchisi xizmat burchini bajarish dardida. O‘quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, qaysi birining

maqsadi pokizaroq, g'ami ulkanroq ekanligini asoslab berishlari maqsadga muvofiq.

Asardagi: "To'lin oy ularning o'ng tomonida nur yog'diradi. Tungi o'rmon og'ir, bosinqi xo'rsinadi. Pastda toshlardan toshlarga urilib daryo shag'illaydi. Atrof-tog'lar tosh sukutga ketgan" lavhasi bilan tanishgan o'quvchilar yozuvchining qonli birodarkushlik ro'y beradigan kecha tabiati orombaxsh va sokinligini bunchalik batafsil tasvirlashdan maqsadini anglashga urinishlari lozim. Shunda bu tasvir o'rmon ham, tog'-tosh ham, daryo ham dahshatli xiyonat yuz berishini kutayotganiga ishora ekanini payqaydilar. Tabiat insonning hamishalik yo'ldoshi, quvonchu sevinchini, dardu qayg'usini bo'lishishi mumkin bo'lgan yaratiq. Quvonchli va tashvishli kunlarda inson turgan joyiga sig'maydi, o'zini tabiatning qo'yniga uradi. Tabiatga yaqin odam uning holatini yaqindan tuyadi, unda yuz ko'rsatayotgan belgilarni sezadi. Atrofning g'oyat tinchligi tasviri ikki obraz ko'nglidagi notinchlikni kuchaytirib ko'rsatishga xizmat qilgan. Holatlar orasidagi qarama-qarshilik ifodaning ta'sirini oshirgan.

Jo'xadze uyquasi kelmayotgani uchun g'orga borib yotmoqchi bo'lganida xiyonatchi chekistni bezovtalangani tasviri ko'ngli egri odamning har narsadan gumonsirashini ko'rsatadi. Asarda bu holat: "Sandro etagi kuyganday tipirchilab qoldi" tarzida birgina jumla bilan beriladi. Personajning bu holatini izohlash uchun o'quvchilar bir qadar zo'riqishlari zarur bo'ladi. O'smirlarning izohlari asosli-asossiz, to'g'ri-noto'g'ri bo'lishi mumkin. Maktab adabiy ta'limi uchun o'quvchilarning inson xatti-harakatlari zamiridagi ma'noni anglashga intilishining o'zi muhim. "Jo'xadzeni g'orda yotishga undagan narsa nima edi?" shaklidagi yordamchi savol bilan bolalarning fikrini chuqurlashtirish mumkin. O'quvchilar Guramni qismatning notantiligi, kelajakning noma'lumligi, mag'lublik azobi, vatangadolik istiqboli qiynayotganini anglashadi. Ular Jo'xadzeni safdoshlari taqdiriga javobgarlik ruhan azoblayotganini, Sandroni esa buyruqni bajarish tashvishi qiynayotganini anglashadi. Adabiyot o'qitish uchun o'quvchining

Guramni yoqlab, Sandroni qoralashidan ko'ra, birovlar xatti-harakatini baholash orqali o'z ma'naviy olamini shakllantirishi muhimdir.

Asarda Jo'xadzening ichki qiyofasi uning: "Urush degani shu. Biz qon to'kdik. Bizning qonimizni to'kishdi. U tarafdin ham, bu tarafdin ham ko'p asl o'g'lonlarning boshlari ketdi... Halok bo'lgan do'stlarimdan va g'animlarimdan uzr... so'rayman. Jangda o'lgan g'anim - g'anim emas. Oyog'im uzangida turganda ham, baribir men halok bo'lganlardan kechirim so'rar edim",- tarzidagi iqrorida to'la-to'kis namoyon bo'ladi. O'zi olib borayotgan kurashning mohiyatini teran anglagan, dushmanidan ham uzr so'rashga tayyor tanti erkakning halolligi, mardligini o'quvchilar tuyadilar. Jo'xadzening yuragi tubidan chiqqan alangali so'zlari, mardona harakatlari, uning buyuk vatansuyar ekanligini ko'rsatadi. O'smirlar diqqati ota yurtidan chiqib ketish oldidan Jo'xadzening: "Kelinglar, bir-birimiz bilan xayrlashaylik, ona Yerimiz bilan xayrlashaylik, gruzinning non-tuzi bilan xayrlashaylik...",- degan so'zlariga qaratilsa, ular zahirida Guramning elu yurtga bo'lgan beaddad muhabbati ifoda etilganligi seziladi. Bu haqda fikr yuritish bolalar ichki dunyosini teranlashtirib, ma'naviy olamini poklaydi. Har qanday qaltis vaziyatda ham sog'lom fikrlay oladigan, yengilganiga birovni aybdor qilmay, yovdan yozg'irmay, hodisalarni mardona taftish qila oladigan, millatning non-tuzini muqaddas bilgan o'g'lon tuyg'ulari tasviri o'quvchilarni ham ma'nan yuksaltiradi.

Jo'xadzening: "Biz o'zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo'q. Vatanni olib ketib bo'lmaydi. Faqat sog'inch va armonlarimizni olib ketamiz. Agar vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo'lganda, u sariq chaqaga ham arzimadi",- degan gaplarida yigitning armoni naqadar buyuk va so'ngsiz ekani mohirlik bilan aks ettirilgan. Ular jonini millat va vatan yo'liga tikkan yigit shaxsiyatiga xos xususiyatlarni yaqqol ifoda qiladi. Chindan ham qo'rboshi miqiyosli fikrlaydi. Unga torlik, biryoqlamalik begona. O'qituvchi Jo'xadzening otashin va samimiy gaplari bolalar tomonidan his qilinishiga erishsa, mashg'ulot samarali bo'ladi.

Asarda Guram va Sandrogina emas, balki nomlari tilga olinmagan besh yigit timsoli ham g'oyat esda qoladigan va qabariq tasvirlangan. O'quvchilar quyidagi parchaga tayanib, romandagi timsollar ruhiy holatini izohlashga urinib ko'rishlari lozim: "Ular davra yasab turishar, ba'zan qo'llarini bir-birlarining yelkalariga tashlashar, ba'zan qamchiday yerga solintirishar, ba'zan esa, bilib bo'lmas va ko'rib bo'lmas, lekin har narsani biluvchi va har nimani ko'ruvchi ilohiy qudrat eshitsin debmi, qo'llarini osmonga ko'tarar edilar". Bu tasvirda qo'rdagi yigitlarining birdamligi, bir-biriga yelkadoshligi, ularni vatan, xalq kabi mo'tabar tushunchalar o'zaro bog'lab turganligi aks etgan. Quyidagi lavha esa, bu yigitlar o'rtasidagi yaqinlik ildizini yanada ochiqroq ko'rsatadi: "O'sha kecha hijron chog'i alam va ilhom bilan qo'shiq aytayotgan shu yetti g'uzindan ko'ra bir-biriga jondosh va qadr-don odam dunyoda yo'q edi. Qo'shiq ohanglari ularni yanada yaqinlashtirib qo'ygandi". Bu tasvirlarda ulkan samimiyat, adoqsiz dard, inson qismatining beadam chigalligi aks etganligi o'smirlar tomonidan anglanishi kerak. O'quvchilar bunday holatga hayotda hali yo'liqishmagan, badiiy asarda ham ilk marta duch kelishlari, lekin tasvirdagi samimiyat tufayli ular qo'rdagi yigitlar holatini tuyadilar. Bu yigitlarning xatti-harakatlarida maydalik yo'qligini, ular o'zlarini emas, balki erkni deb azoblarga giriftor ekanligini his qiladilar.

O'smirlar dastlab asar qahramonlarining vatanni tark etishdagi holatlarini to'liq anglamasliklari mumkin. Ular yosh bo'lganliklaridan vatan va uni tark etish tuyg'usi nima ekanligini bilmasliklari aniq. Lekin o'quvchilar asar qahramonlarini tushunish, holatini his qilishga urinsalar, qahramonlar misolida personajlarni emas jonli insonni ko'radilar va ularning adoqsiz dardlarini anglaydilar.

Asarda adib qahramonlar ruhiyatini boriday ko'rsatish, ularning miyasida quyunday g'ujg'on o'ynayotgan savollar tartibsizligini aks ettirish uchun tasvirning alohida yo'lini tanlaganligini bolalar tushunishsa, dars samarasi ortgan bo'lardi. Asardagi: "Agar Yaratgan hammasini ko'rib turgan va bilib turgan bo'lsa, nega unda ularni o'z ona Yerlaridan quvg'in qilmoqda, bu qanday bo'ldi axir? Nega axir bunday, nega axir odamlar bir-birlari bilan urushadilar, qon to'kadilar,

ko‘z yoshlarni daryo qilib oqizadilar, hammalari o‘zlarini haq, boshqalarni nohaq deb hisoblaydilar, qani axir haqiqat, kim haqiqatni aytadi, kim?” singari savollar bolalar ruhiyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar bu savollarning parokandaroq tarzda berilayotgani sababi haqida o‘ylashlari kerak. To‘g‘ri, bolalarning bu savollarga ko‘ngildagiday javob berishi qiyin. Chunki ular nafaqat bolalaru o‘qituvchi, balki butun insoniyatni o‘ylantirgan, ammo javobi topilmagan so‘roqlardir. Ketma-ket qo‘yilayotgan bu savollar birgina asar qahramonlarini emas, muallifni ham qiynagan. Ularning tarqoqligi personajlar ruhiy iztirobi, hayajoni, alaminging zo‘rligi natijasi bo‘lsa, takrorlar qahramonlar ruhiyati va taqdiridagi parishonlik ifodasidir.

Asardagi: “Omonsiz janglardan birida Jo‘xadze to‘dasi ko‘p talafot ko‘radi, chekinishga majbur bo‘ladi. ...Omonlik yo‘q. Yigitlar tog‘ daryosining o‘rtasida tutday to‘kiladilar. Lekin Guram Jo‘xadzening kuni bitmagan ekan! U do‘lday yog‘ilgan o‘q ostidan ...qutulib chiqadi. ...O‘zini daryo yoqalab o‘sgan qalin butazorlarga uradi va zum o‘tmay ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bir nechta tirik qolgan sodiq yigitlari unga ergashadilar. Mo‘ljaldagi ish to‘la amalga oshmay qo‘r boshlig‘i qochib borayotganligini ko‘rgan chekist darhol yana ularga qo‘shiladi” tasvirida chin qahramon va sotqin kimsani ajratib olish naqadar mushkul ekanligi aks etgan. Sandro haddan tashqari ustamon. U sovuqqonlik bilan qo‘rdagilarni o‘limga ro‘para qilib, buyruq to‘la bajarilmagani uchun ularga yana qo‘shilib olishni ham uddalaydi.

Tahlil davom etgan sari o‘quvchilar asardagi timsollar holatini aniqroq tasavvur qila boshlaydilar. O‘smirlar tahlil bahonasida yetovlonning taqdiriga yaqindan aralashganlari uchun ham ularga tatbiqan “yetovlon” emas, aynan “oltovlon va yettinchi” birikmasi qo‘llanilishi to‘g‘ri ekanini anglab yetishadi. Asarda chekist haqida: “Sandro esa dam-badam davradan chiqib, gulxanga o‘tin tashlar, olov qarsillab, tobora qizdirib, kuydirib baland o‘rlardi”, - deb yoziladi. O‘quvchilar tinmay o‘rlayotgan narsa olovmi yoki nafrat, xiyonat, afsus o‘timi ekanini o‘ylab ko‘rishlari mumkin. Nega nafratu, nega xiyonatu, nega afsus? U

kimniki? Sandronikimi? Nafrat nimaga qaratilgan, kimga xiyonat qilingan, nimadan afsus chekiladi? Bu savollarning javobi o'quvchilardan fikran zo'riqishni talab qiladi. Kimdir olovda Sandroning o'z sheriklariga nafratini, kimdir xiyonatini ko'rar, birov uning so'nggi ishiga asoslanib o'z qilmishidan afsusini tuyar. Har uchala holatda ham mantiq bor, har uchala javobni ham noto'g'ri deb bo'lmaydi. Negaki, nafratga ham, xiyonatga ham, afsusga ham asos bor. O'qituvchi bolalarni Sandroning xotirjam emasligi sababi haqida o'ylab ko'rishga undagani ma'qul. Qolgan olti yigitga tegishli bo'lgan vatan bilan vidolashish dardi yot bo'lsada, xiyonatchi xotirjam bo'lolmaydi.

O'quvchilarning e'tibori oltovlon va yettinching chigal ruhiy holati ifoda etilgan: "Boshlarini quyi egib, qo'shiq boshlashdi - ohang go'yo yer ostidan guvillab kelayotganday o'ychan va qudratli yangrab borardi" tasvirga tayanib, yigitlarning kayfiyatu o'ylarini anglashga yo'naltirilishi zarur. O'smirlar qo'shiq ham, uning ohangi ham yigitlar ko'nglining chuqur joylaridan juda katta dard, alam bilan chiqib kelayotganini, shuning uchun yer ostida chiqayotgandek guvillashini his qilishlari lozim. Tuyg'uni so'z bilan ifodalash mushkul. Afsonada aks etgan voqyea, undan kelib chiqadigan ma'no og'ir, zimmasidagi badiiy yuk zalvorli. Haqiqiy asar bilan yuzma-yuz bo'lingani uchun ham bular o'quvchilarga qiyinlik qilmaydi.

Tahlil asnosida o'quvchilar dunyo oq va qora ranglardangina iborat emasligini, odamlarni yaxshi va yomonga, do'st va dushmanga ajratish oson kechmasligini bilib olishadi. Chekistga ham bir yoqlama baho berib bo'lmaydi. O'quvchilar Sandroning qanday shaxsligi haqida jiddiy o'ylab ko'rishlari kerak bo'ladi. Bunda asardagi tasvirga tayangan ma'qul: "Qo'shiqlarni ham u barcha qatori chin yurakdan aytar - axir qo'shiq hammaga bab-baravar tegishli emasmi?" Ham chin yurakdan qo'shiq aytish, ham shu paytning o'zida yurakdan qo'shiq aytayotgan barcha jo'ralarini o'ldirishni rejalashtirish uchun qanday odam bo'lish kerak? Bunga bir xil hamda aniq javob yo'q va bo'lishida mumkin emas. Sandro o'ziga yomonlik qilmagan quroldoshlarini o'ldirishga majbur. Vatandoshlarni

o'ldirish vatanni o'ldirish emasmikin? Ularga xiyonat vatanga xiyonat bo'lmasmikini? Ehtimol, shu g'am uning yuragidan qo'shiq bo'lib otilib chiqayotgandir? Bolalar bu haqda o'ylab ko'rsalar, shaxs sifatida teranlashadilar.

O'quvchilar Sandroning qurdoshlarini halok qilgandan keyingi holati tasviri ustida o'yga cho'mganlari ma'qul. Asardagi: "U meshni shart ko'tardida, tagida qolgan vinoni to'kib-sochib yutoqib icha boshladi, u ichida yonayotgan olovni bosmoqchi bo'lardi" tasviri o'smirlarni jiddiy o'ylatishi lozim. Yigitning ichida qanday o't yonayotgani, uni biror yo'l bilan o'chirish mumkin yoki mumkinmasligi borasida fikrlash o'quvchilarni ulg'aytiradi. Jonday sheriklarini o'ldirgan odamning holati boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Bolalar Sandroning ichida xiyonat olovi, alam o'ti yonayotganini anglashadi. Chekist sifatida buyruqni bajargan esada, u ham inson. Unda ham ko'ngil, vijdon bor. Aqlning talabi bilan buyruqni bajargan bo'lsada, ruhiy bir qudratning oldida hisob berishga majbur. Bolalar shu holat uni qiynagan bo'lishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rishadi. Uning o'zini o'ldirishi, ehtimol, vijdon hukmidir. Bolalar xiyonatkor o'ziga qaratgan yettinchi o'qning avvalgi oltitasidan farqi haqida mulohaza yuritadilar. O'smirlarda Sandroni oqlashga ruhiy-mantiqiy asos beradigan fikr chiqib qolsa, bunga ham yo'l berish kerak. Adabiy haqiqat ko'p qiyofali ekaniga ko'nikish lozim.

O'quvchilar yigitlar halok etilgandan keyingi manzara tasviriga diqqat qilganlari ma'qul: "Gulxan yonib bitmagandi. Daryo vag'illardi, o'rmon va tog'lar bari o'z joyida edi, oy yuksaklarda sokin kezardi hech narsa yuz bermaganday, yolg'iz uzoq davom etgan taronagina uzildi, uzildi". O'smirlar "uzildi" fe'li ikki marta takrorlanishi zahirida nima bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'ylab ko'rishlari kerak. Chindan ham hech narsa o'zgarmadimikin? Ehtimol, bu o'zgarish o'smirlar ruhiyatida sodir bo'lgandir? Afsona sabab o'quvchilar o'z ruhiyatini taftish qilishadi. Ular alam, nafrat, achinish kabi hislarni aralash tuyishlari tabiiy.

Chingiz Aytmatovning har bir asari insoniyat ma'naviyatining yuksalishiga beqiyos hissa qo'shgan. Ayniqsa, adibning "Asrga tatigulik kun" romani bu jihatdan o'zgacha mavqega ega. Chunki bu asar yozuvchining qalb faryodi, bashariyatning ma'naviy dunyosini sog'-omon saqlab qolish yo'llari haqidagi alamangiz nidolaridir. Bu asarni o'rta maktabning yuqori sinfida o'rganish didaktik jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Asrga tatigulik kun" ko'p qatlamli, imo-ishoralarga boy asar bo'lgani uchun ham undagi teran tagma'nolarga, tushunish oson bo'lmaydigan ishorali tilga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu romanda odam deb atalmish murakkab yaratilgan haqiqiy qimmatini nimada ekaniga, kecha bilan bugun o'zaro aloqadorligiga aqli yetadigan, o'zini xatti-harakatlarini nazorat va taftish eta biladigan inson o'zgariga yomonlik qilolmasligi ko'rsatilgan.

O'quvchilar Bo'ronli Edigey timsoli tasviriga tayanib insonni ulug'laydigan jihat uning amali ham, boyligi ham, kuchi ham emas, balki ajdodlardan o'tib kelayotgan ezgu qadriyatlarga amal qila bilishida ekanini anglaydilar.

Yozuvchining o'z umrbayonida: "Bizning ovulimizda yetti otasini bilish odatiga qat'iy rioya qilinardi. Shu sababdan o'zimizdan oldin o'tgan yetti ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdanoq ongimizga singdirilardi. Odatda ovul qariyalari bu borada o'g'il bolalarni: "Qani aytchi, botir, kimlarning avlodidansan? Otang kim? Otangning ota-bobolari kimlar? Nima ish bilan shug'ullanishgan?" kabi savollar bilan sinashardi. Agar bola bu savollarga javob berolmasa, uning ota-onasi qattiq izza qilinardi",- deb yozganiga tayanib, u insonning o'zligini anglashida o'tmish qadriyatlarining o'rni kattaligiga azaldan e'tibor bergani o'quvchilarga bildiriladi. Muallim o'spirinlar diqqatini oqsoqollar yetti otasini bilish-bilmasligini nima uchun aynan o'g'il bolalardan so'rashiga yo'naltirishi kerak. Sinfdagi bolalar elu yurtning sha'ni va amal qiladigan qadriyatlarini daxlsiz asrash erkaklar zimmasida ekanligini anglab yetishlari lozim. Qiz bola qayerga kelin bo'lib tushsa, o'sha joyning sharoitiga moslashishi zarur,

erkak kishi el-ulusga tegishli qimmatli qadriyatlarni asrab, keyingi avlodlarga yetkazishga mas'uldir.

Adib umrbayonida uning ona tiliga munosabatini ko'rsatadigan bir iqror borki, roman mohiyatini anglashda u ham o'ziga xos bir kalit vazifasini bajaradi. Yozuvchi: "Ona tili! U haqda nihoyatda ko'p gapirilgan. Lekin uning sirli mo'jizasini tasvirlab bo'lmaydi. Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina... insonda milliy g'ururning ilk kurtaklarini uyg'otishi ...mumkin",- deya o'zining milliy ildizlarga qanchalik teran bog'langanini ifoda etadi. O'quvchi adib yuragidagi ana shu tuyg'ularni bilsagina manqurt fojiasini, uning zamonaviy va o'qimishli ko'rinishi bo'lmish Sobitjonning ma'naviy qashshoqligi hamda u yetkazadigan zararni anglaydi. Aks holda, o'spirinlar ham xuddi Sobitjon singari ota jasadini shuncha yo'l bosib Nayman ona qo'yindisiga olib borish shartmideb o'ylashi mumkin. O'qituvchi bu yerda gap go'ristonda emas, balki marhum vasiyatiga hurmat bilan qarash va uning so'nggi istagini bajarishda ekanini o'quvchilarga anglatishi lozim.

O'spirinlar Sobitjonning fojiasi uning o'z holatini bilmasligi, o'z nuqsonlarini madaniyat belgisi deb hisoblayotganida ekanini tushunsalar, asar mohiyatiga yaqinlashadilar. Aks holda, quyidagi suhbatda otadan ajralgan o'g'ilning ayanch holati qanday tasvirlanganini ilg'amay qolishlari mumkin: "Mening otam, nima qilsam o'zim...- deb Sobitjon chaynala boshlagan edi, Edilboy gapini shartta kesdi:

- Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingniki bo'lmay qolibsan".

Bu qisqa suhbatda o'zligidan, ildizidan, demakki, insoniy qiyofasidan ayrilgan kimsaning qonsiz fojiasi aks etgan.

O'qituvchi ana shu qiyofasizlikning o'tmishdagi dahshatli ko'rinishi bo'lmish manqurtlik yozuvchi tomonidan Nayman onaning chegarasiz dardu alami ifodalangan afsonada aks etganini o'quvchilarga anglatishi joiz. Dars davomida butun e'tibor asar qahramonlari yuragida kechayotgan ruhiy holatlarni sezdirishga

qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinmasa, personajlar holati tushunib yetilmaydi va Nayman ona fojiasining ko‘lami tuyilmay qoladi.

O‘quvchilar oldin eri, so‘ng yolg‘iz o‘g‘lidan ajralgan bo‘lsada, odamiyligi, g‘ururi, bobolar udumiga hurmatini saqlab qola bilgan Nayman onaning shaxsiyatidagi butunlikni his etsalar uning g‘amlarini teran anglashlari mumkin. Romanda onaning holati “Gumon-shubhalarning cheki yo‘q edi. Sayyoh savdogarlar choy ichishib o‘tirishganda, Sario‘zakda uchragan yosh manqurt haqida gap ochib Nayman onaning o‘rtangan yuragini battar o‘rtab, yarasiga tuz sepishganini o‘zlari ham payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O‘sha manqurt mening o‘g‘lim bo‘lib chiqsa-ya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aqlu hushini, bugun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchliroq chirmab ola boshladi. O‘sha manqurti izlab topib, o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uning o‘z pushti kamaridan bo‘lgan o‘g‘li emasligiga ishonch hosil qilmaguncha ko‘ngli tinchimasligiga ko‘zi yetgan edi” tarzida berilgan. Mana shu tasvirdagi nozik nuqtalarni e‘tibordan qochirmagan o‘quvchi onaning yuragini o‘rtagan alamlar miqiyosini ilg‘aydi. Bolalar odam ruhiyati, sezimlari naqadar beqaror va o‘zgaruvchan ekanini tuyadilar. Asarda bolasining yo qahramonlarcha o‘lgan, yoxud manqurt holiga tushgan yoki o‘ligi dalada qolib ketgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida o‘ylashdan ham qo‘rqadigan, ayni vaqtda bor haqiqatni bilmaguncha tinchiy olmaydigan sho‘rlik ona holati tengsiz mahorat bilan aks ettirilgan.

Adib asarda baxtsiz ayolning g‘arib o‘g‘li tabiatini onaning adadsiz fojiasi orqali aks ettiradi. Negaki, odam ayanch holatini tushunsagina iztirob chekadi. Holatining ayanchli ekanini tushunmagan odam uchun fojia o‘z ma‘nosini yo‘qotadi. Asarda jismigina emas, balki ruhi, tuyg‘ulari ham qul qilingan, muhabbat, nafrat singari insoniy sezimlardan, xotira deb atalmish odamni o‘tmishga bog‘lab turadigan ne‘matdan mahrum qilingan Jo‘lomonning qiyofasiz qiyofasi tasviri etni junjuktirar darajada aniq tasvir qilingan: “Biroq onaning kelgani unga go‘yo har doim yonida yurganday, zarracha ta‘sir qilmadi. U hatto

onadan kimsan, nega yig'layapsan, deb so'ramadi ham. Ma'lum lahzalardan so'ng tuyachi onaning qo'lini yelkasidan surib tashlab, ustida yuk bor tuyasini yetaklagancha odimlab ketdi: u sho'xlik qilib bir-birlari bilan o'ynashayotgan bo'taloqlar uyurdan uzoqlashib ajralib ketmasin, deb tuyalar to'dasining narigi chekkasi tomon yo'l olgan edi". Tasvir g'oyat dahshatli, lekin uning butun zalvorini yolg'iz o'g'lining shu holatini kuzatib turishga majbur bo'lgan onagina biladi.

Nayman onaning quyidagi holatini ichdan tuygan o'quvchilar ruhiyatida sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi: "Botayotgan quyosh shu'lalari qo'sh o'rkach o'rtasida o'tirib olgan ona qiyofasini baralla ko'rsatardi. U jiddiy tusda, yuzlarining qoni qochgan holda hushyor tortib, xavotirlanib o'tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g'am-g'ussali ko'zlariga esa Sario'zak xuftoni singari g'am-tashvish cho'kkan edi...". Hayotining ma'nosi bo'lmish o'g'li majruh etilgani sabab vujudi emas, ruhi ham sindirilgan onaning abgor holati butun dahshati bilan tasvirlangan shu o'rinlarga o'quvchilar e'tibori alohida yo'naltirilsa, kutilgan pedagogik natijaga erishiladi.

"Asrga tatigulik kun" romanida Chingiz Aytmatov odamni xotiradan mahrum qilib manqurtga aylantirgan jungjanglarga bo'lgan nafratini bekitmaydi, kitobxonni ham o'ziga tarafdor qilib olishga urinadi va bunga erishadi. Shuningdek, Sobitjonga o'xshash azaliy qadriyatlarni tushunish, odam ko'nglini anglashdan yiroq to'nkamijoz, hissiz odamlarni yetishtiradigan jamiyat tartibiga bo'lgan nafratini ham jo'shqinlik bilan ifodalagan. Adabiy asarning asosiy yo'nalishini belgilab beradigan ruh bo'lmish badiiy pafos o'quvchilarga yetib boradi. Yozuvchining romanda aks etgan qaynoq sezimlari, otashin tuyg'ulari asarning pafosi darajasiga ko'tarilgani uchun ham o'quvchini o'ziga ergashtiradi. Asarning yorqin pafosi kitobxonni muvozanatdan chiqarib, unda ma'naviy-axloqiy pozitsiya shakllanishiga olib keladi.

Xullas, Chingiz Aytmatovning asarlari o‘quvchi yoshlarda barkamol ma’naviyat shakllantirishda ulkan imkoniyatlarga egadirki, ulardan o‘rinli foydalanish ta’lim-tarbiya ishlari saviyasini yuksaltiradi.

Xulosa

Davrimizning taniqli yozuvchilaridan bo'lmish Chingiz Aytmatovning ko'pchilik asarlari o'quvchi yoshlarda ezgu ma'naviyat shakllantirishda beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki uning asarlarida odamni odamiy qiladigan amallar, inson ruhiyatida tozarish va ezgulik sari intilish uyg'otadigan omillar betakror ifoda etilgan. Shuning uchun ham maktab adabiyot dastur va darsliklari tinimsiz o'zgarib turgan hozirgi sharoitda adib asarlarini o'rgatish nazardan chetda qolmasligi kerak. Yozuvchi asarlari o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlariga qanchalik mos kelishini hisobga olib ish ko'rish katta didaktik ahamiyat kasb etadi. Zero, o'quvchilarga o'z vaqtida va kerakli miqdorda berilgan badiiy ozuqagina oson yuqadi hamda yoshlarda ezgu ma'naviy sifatlar qaror topdirishga xizmat qiladi.

Chingiz Aytmatov ijodi shaxsda yuksak ma'naviy sifatlar shakllantirishda katta samaralar bera oladigan asarlarga boy. Teran falsafiy qarashlar aks etgan asarlarida ham Aytmatov o'smirlar shuuridan mustahkam o'rin oladigan shunday lavhalarni chizadiki, ular bilan tanishish o'quvchilar shaxsiyati shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Har bir o'qituvchi o'zining didaktik niyati va o'quvchilarining intellektual-ruhiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, adabiyot darslari oldiga o'zicha maqsad qo'yadi. O'qituvchi o'z maqsadini o'quvchilarniki bilan uyg'unlashtira bilgandagina mashg'ulot o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir qiladigan harakat energiyasiga aylanadi. Asar yuzasidan muallim tuzgan savol-topshiriqlarga javob berish uchun o'smir matnga qayta-qayta murojaat qilishi, o'qigan-bilganlariga tayanib, fikr bildirishi muhim. O'qituvchi mana shu jarayonning boshida turishi, ammo o'z qarashlarini tarbiyalanuvchilariga o'tkazmasligi kerak.

Asarda adib qahramonlar ruhiyatini boriday ko'rsatish, ularning miyasida quyunday g'ujg'on o'ynayotgan savollar tartibsizligini aks ettirish uchun tasvirning alohida yo'lini tanlaganligini bolalar tushunishsa, dars samarasi ortadi.

Chingiz Aytmatovning har bir asari insoniyat ma'naviyatining yuksalishiga beqiyos hissa qo'shgan. Ayniqsa, adibning "Asrga tatigulik kun" romani bu jihatdan o'zgacha mavqega ega. Chunki bu asar yozuvchining qalb faryodi, bashariyatning ma'naviy dunyosini sog'-omon saqlab qolish yo'llari haqidagi alamangiz nidolaridir. Bu asarni o'rta maktabning yuqori sinfida o'rganish didaktik jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Asrga tatigulik kun" ko'p qatlamli, imo-ishoralarga boy asar bo'lgani uchun ham undagi teran tagma'nolarga, tushunish oson bo'lmaydigan ishorali tilga alohida e'tibor qaratish lozim.

"Asrga tatigulik kun" romanida Chingiz Aytmatov odamni xotiradan mahrum qilib manqurtga aylantirgan jungjanglarga bo'lgan nafratini bekitmaydi, kitobxonni ham o'ziga tarafdor qilib olishga urinadi va bunga erishadi. Shuningdek, Sobitjonga o'xshash azaliy qadriyatlarni tushunish, odam ko'nglini anglashdan yiroq to'nkamijoz, hissiz odamlarni yetishtiradigan jamiyat tartibiga bo'lgan nafratini ham jo'shqinlik bilan ifodalagan. Adabiy asarning asosiy yo'nalishini belgilab beradigan ruh bo'lmish badiiy pafos o'quvchilarga yetib boradi. Yozuvchining romanda aks etgan qaynoq sezimlari, otashin tuyg'ulari asarning pafosi darajasiga ko'tarilgani uchun ham o'quvchini o'ziga ergashtiradi. Asarning yorqin pafosi kitobxonni muvozanatdan chiqarib, unda ma'naviy-axloqiy pozitsiya shakllanishiga olib keladi.

Xullas, Chingiz Aytmatovning asarlari o'quvchi yoshlarda barkamol ma'naviyat shakllantirishda ulkan imkoniyatlarga egadirki, ulardan o'rinli foydalanish ta'lim-tarbiya ishlari saviyasini yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I. Aqliy va ma'naviy salohiyat – yangi jamiyat poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 173 bet.
6. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

7. Fayzullayev O. Yozuvchining ilmiy fantaziyasi // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2005- yil, iyun.
8. Meliyev S. “Asrga tatigulik kun”: roman badiiy strukturasi ayrim xossalari // „O'zbek tili va adabiyoti“, 2010- yil, 2-son.
9. Qorayev Suyun. Insonparvar adib // “Ma'rifat” gazetasi, 2010- yil, dekabr.
10. Pariza Mirzaahmedova. Davrimiz allomasi // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2004- yil, mart.
11. Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
12. Seydanov X. Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
13. Sizdiqboyev N. Chingiz Aytmatov badiiyatining ayrim qirralari // Til va adabiyot ta'limi, 2008- yil 12-son.
14. Solijonov Y., Abdukarimov T. Chingiz Aytmatov – inson va tabiat kuychisi. – Farg'ona, 2008.
15. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. – Toshkent, 1974.

16. Yoʻldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2014.
17. Yoʻldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2014.
18. Gʻaniyev I., Ibragimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
19. Мирзаахмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Ч.Айтматова. Дисс.канд.фил.наук. – Москва, 1981.

III. Lugʻatlar:

20. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.

VI. Badiiy adabiyotlar:

21. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989.
22. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1978.
23. Matjon O. Haqqush qichqirigʻi. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1979.
24. www.ziyonet.uz
25. www.adabiyot.uz
26. www.news.uz